


Олимжон ЎСАРОВ

ЮЛДУЗЛАР КАРВОНИ

Шеърлар



Тошкент – 2016

УЎК: 821.512.133-1 -

КБК: 84(5Ў)7

Ў88

Ўсаров, Олимжон

Юлдузлар карвони: шеърлар / Ўсаров О. – Тошкент:
Yurist-media markazi, 2016. – 176 бет.

ISBN 978-9943-4337-1-7

УЎК: 821.512.133-1

КБК: 84(5Ў)7

Иқтидорли ижодкор Олимжон Ўсаров адабиётга Ватанимиз кескин ўзгаришларни бошидан кечирган паллада кириб келди. Бу давр ҳаётимизни ва инсонни ўзгартирди. Бу эса, ўз навбатида, адабиётдан ва ижодкордан ҳам янгича қарашларни талаб этди. Бугунги ижодкорнинг руҳи янгиланган, кўнгли тозарган, атрофга янада тийрак назар солгувчига айланган.

Маълумки, ҳар ким шеърни ҳар хил ёзади. Олимжон шеърларини асосан салафлар ўзлаштирган йўлларда ёзади. Ана шу анъанавий йўлда ижод қилиш осон эмаслигини тушуниб, ҳаётга ўзгача қарашга интилади. Аммо баъзан тажрибалар қилишдан ҳам қочмайди. Сўз ва Шеър қотиб қолган “наrsa” эмаслигини англайди. Шеърларининг мавзулари ҳам шоир ҳаётидан четда эмас, ўз ҳаёти ва юрагига яқиндир. У Ватан, она, муҳаббат ҳақида ёзаркан, бу қадимий мавзуларда янги гап топиб айтиш нечоғли мураккаб бўлмасин, ўз сўзини қидиради. Умид қиламизки, шоирнинг мазкур изланишлари шеърят мухлисларини бефирқ қолдирмайди.

Тақризчи ва масъул муҳаррир:

Муҳиддин ОМОН, шоир

ISBN 978-9943-4337-1-7

© “Yurist-media markazi” нашриёти, 2016.

© О.Ўсаров.

ҚУТЛУҒ САЖДАГОҲ

*Баҳорий боғлари дунёга машҳур,
Бахтлар водийсида туғилган бўлсам,
Ва юрт соғинчини билмасдан, шукур,
Ҳар лаҳза элимнинг камолин кўрсам,
Бу менинг бахтимдир, билинг,
дўстларим...*



БАТАН ТУПРОҒИ

Ҳар гал қишлоғимга борганим чоғи,
Бир туйғу дилимни титратар чунон.
Болалигим кечган Ватан тупроғи
Тафтидан жўшгайдир томиримда қон.

Бутун вужудимда шижоат, ғурур,
Она эл бағрида яна боламан.
Шиддатини инъом этган Булунғур
Сувидан сипқориб ҳузур оламан!

Қўй-қўзи бокқаним қиру адирлар
Майсалардан турфа гилам тўшайди.
Ҳар гиёҳ, ҳар майса суюк, қадрдон,
Подачи болалар Менга ўхшайди.

Ногаҳон кўзимда жилва қилар дур,
Бу соғинч ёшими, севинчмикан ё,
Кўнглимга қуйилар илоҳий ғурур,
Менинг юртим танҳо, Ватаним танҳо!

Омон бўл, эй Она маскан, бешигим,
Мен ҳамон болангман, Сенга хуморман.
Сенинг дуонг билан бахтга эшлигим,
Сенинг бахтинг кўриб, Мен бахтиёрман!



ТОШКЕНТ

Ўтган йили Сенда меҳмон бўлган зот
Бу йил таний олмас ой жамолингни,
Тангрим раво кўрмиш Сенга умрбод,
Мангу завол билмас бахт-иқболингни.

Хар гўшанг бир тарих, ҳар тошинг достон,
Қадим ривоятлар сўзлаб бергайдир.
Сенинг мадҳинг битмоқ эмасдир осон,
Шоирлар дур каби назм тергайдир.

Мен ҳам камол топдим бағрингда Сенинг,
Сенинг меҳринг билан униб-ўсдим рост.
Маъзур тут, ғарибдир ашъорим менинг,
Бироқ Тошкент десам, дил гуллар қийғос.

Боиси ақлимни танидим Сенда,
Сен ўзинг гувоҳсан дил изҳорига.
Онам фахр туяр: «Болам Тошканда,
Юрибди ярай деб юртнинг корига!»

Шул боис Сен Менга Онамдек азиз,
Отамдек бағрикенг суюкли даргоҳ,
Умрим бахшидадир Сенга шубҳасиз,
Эй, Ватан пойтахти, қутлуғ саждагоҳ!

САМАРҚАНД

(Юртимиз олимлари томонидан шу пайтгача фанга номаълум бўлган янги сайёра аниқланди ва у жаҳон астрономлари ташкилоти томонидан расман эътироф этилиб, «Самарқанд» сайёраси номи билан «Кичик сайёралар Халқаро каталоги»га киритилди)

Мирзо Улуғбекнинг нигоҳи уйғок,
Ҳамон юлдузларга йўлдош Самарқанд.
Шубҳа қилсанг, зиж-у жадвалларга боқ,
Янги сайёрага номдош — Самарқанд!

Ҳеч нарса тасодиф эмас дунёда,
Ҳақ Тангри азми-ла айланар даврон.
Бу юрт азалдан зўр илму зиёда,
Буюклар диёри аталгай ҳамон!

Соҳибқирон Темур руҳи мададкор,
Бухорий, Навоий пойи муқаддас.
Бундадир Кўксарой, Намозгоҳ, Шердор,
Дунё сайёҳлари қилурлар ҳавас.

Регистон майдони жаҳон санъатин
Буюк саҳнасига айланди чиндан,
Дунё тингламоқда юртим даъватин:
Ўзбек буюк миллат, каммас ҳеч кимдан!

Боиси ундадир буюк бир мерос,
Маънавий қадрият илму ирфон ҳам.
Ҳатто Афинани қилганда таққос,
Самарқанднинг шаъни тургай мухтарам.

Бежизга демаслар замин сайқали,
Самарқанд чиндан-да табаррук шаҳар,
Бундан-да улуғвор бўлгуси ҳали,
Бундан-да толеи бўлгай музаффар!

Бежизга бу юртдан чиқмас даҳолар,
Бу юртга Тангрининг тушган назари,
Самарқандни сўз ила бўлмас баҳолаб,
Унга тенг келмагай оламнинг зари.

Бугун ҳам шу фикр дилда устувор,
Ҳақ сўзнинг бўлмагай шубҳа, гумони.
Ахир олам билар, юртни улуғвор —
Буюк Давлат қилган шу юрт ўғлони!

Мирзо Улуғбекнинг нигоҳи уйғоқ,
Ҳамон юлдузларга ошён Самарқанд.
Истасанг Юлдузлар карвонига боқ,
Барча сайёрага Сарбон — Самарқанд!



ТОНГ ФАРЗАНДИ

Мен ўшанда анча ёш эдим,
Армон сўзин билмасди тилим.
Такрорларди онам ҳамиша:
«Сен тонг пайти туғилдинг, ўғлим.

Демак, бўлгин тонгдек беғубор,
Яшайверсин қалбингда баҳор.
Хазонликни билмагин асло,
Номингга доғ тушмасин зинҳор...»

Мен Ватаннинг гулбоғларида,
Болаликнинг хур чоғларида,
Бургут каби улғайдим эркин,
Булунғурнинг қир-тоғларида.

Илк ҳаётга қўйганда қадам
Яшаш недур, билдим надур ғам.
Битдим хушнуд ашъорлар ҳар дам,
Юрагим дард тимдаласа ҳам.

Гул деганим чиқса-да тикан,
Муҳаббатим бўлса-да армон,
Воз кечмадим эзгу туйғудан,
Чунки тонгга фарзандман ҳамон!



МЕНИНГ БАХТИМ

Мени Мажнун атаб баъзи дўстларим,
Ортиқча мурувват кўрсатар ҳар дам.
Рост, қалбда армон кўп, лек азизларим,
Эрурман дунёда энг бахтли одам.

Бахтлиман – қўлимда ҳамроҳим қалам,
Қалбимда минг орзу ҳар тонг туғилар,
Суйганим ўша қиз тушда бўлса ҳам,
Бир даста гул ила нозланиб кулар.

Мени сира ғамгин деманг, дўсту ёр,
Бошида Сарбоним, ҳур Ватаним бор.
Ёнимда Сиз каби дўстларим бисёр,
Юксак давраларда топдим эътибор.

Баҳорий боғлари дунёга машҳур,
Бахтлар водийсида туғилган бўлсам,
Ва юрт соғинчини билмасдан, шукур,
Ҳар лаҳза элимнинг камолин кўрсам,

Бу менинг бахтимдир, билинг, дўстларим...



СЕН ХАЛҚДИРСАН

Кўй каби бўғизлаб сўйилди одам,
Отдилар эрк сари кўйилса кадам,
Хақорат сўзлари тинмади бир дам,
Бу кундан атиги юз йил муқаддам,
Ўчириб бўларми буни кўнгилдан?

Кўзларинг ўнгида онангни отди,
Камчи изи отанг юзига ботди,
Дуоғўй синглингни қўлма-қўл сотди,
Бу кундан атиги юз йил муқаддам,
Ўчириб бўларми буни кўнгилдан?

Туғилмай кўз юмди неча авлодинг,
Саболарга инди оху фарёдинг,
Ағёр барбод этди боғи бунёдинг,
Бу кундан атиги юз йил муқаддам,
Ўчириб бўларми буни кўнгилдан?

О, халқим, бу кунлар бўлмасин унут,
Эрку истиклолинг энди маҳкам тут,
Олға бошлар Сарбон мисоли бургут,
Бўл унга ҳамиша ҳамкору ҳамдам,
Зеро, Сен халқдирсан,
каммас ҳеч кимдан.



ОТА МЕҲРИ

*Айтинг, бунча булутлар оппоқ,
Бунча гўзал бу маъюс япроқ,
Деяверсам, Отам айтдики:
Азиз бўлар туғилган тупроқ.*



ОТАМНИНГ ИҚРОРИ

Недур сенинг мурғак қалбинг тиглаган,
Болажон, айт, нечун кўзларингда ёш?
Айт, болам, недур у сени қийнаган,
Мажнунтол мисоли нега эгдинг бош?

Ҳақиқат...

Бу дардни ҳар ким тушунмас,
Чарчадим мен уни тушимда кўра.
Ҳақиқат! Сен уни Тангридан эмас,
Ҳар тола сочимнинг оқидан сўра.

Курашиб яшадим, излаб ҳақиқат,
Ва топдим мен уни минг йиллар кутиб.
Ҳақиқат биз билан ҳамма вақт, фақат –
Уни асраш керак ўзни унутиб...



ЎКИНЧ

Отажон,
Нечун сочларингиз қор каби оппоқ?
Ахир бундан роса ўн йил муқаддам
Қоп-қора эди-ку сизнинг сочингиз.

Ҳозиргидек бари ёдимда:
Биринчи ва сўнгги бор “тил”дан
“Икки” баҳо олган кунимда
Қўрган эдим бир тола оқ соч.

Бугун эса...
Наҳотки, отажон, ўн йил ичида
Шунча “икки” олган бўлсам ҳаётда?!



ТОЛ

Тол... бамисли илоҳий дарахт,
Туғилган гўдакка бўлади бешик,
дунёдан кўз юмсанг ясашар тобут,
тирикликда қўлинг кавартган
кетмонингга бўлади даста.

Қариган чоғингда
қаддингга мадор,
яна сенга ҳамкор, ҳамсафар...

Тол, дам олмоқ-чун соянгда ётиб,
Ана шуларни ўйладим бугун.



КЕТМОН

Шунчалар вафодор бўларми кетмон,
Очиғи, бунга ишониш қийин!
Ахир, мана шу кетмон,
Отасидан мерос қолганди унга.
Болалик, йигитлик,
Ҳатто қариликни ўтказди бирга.
У ўлди. Кетмони эса
қабрини ҳам қазиди унинг.
Ана! Меросхўр ўғилнинг ёнида,
йиғламоқда кетмон ҳам
қабр бошида...



АЖДОДЛАР МЕРОСИ

Сахро... Гармсел шамол,
Иссикдан жимирлайди қум.
Жилсам, оёғим куяр
шу қуриган дарахт ёнидан.

У – соясида боболарим тин олган
минг йиллик азим чинор,
Ҳозир мени асраётган соя –
Аждодларим мероси – Ватан!



БОЛАЛИГИМ

Ўтди қанча ойлар ва йиллар,
Ўтди менинг тенг ярим умрим.
Ортда эса чинқириб қолди
Болалигим – гўзал баҳорим.

Ортда қолди ёшлигим менинг,
Эртақ каби бахтли кунларим,
Юлдузларга орзулар битиб,
Бедор ўтган ойдин тунларим.

Қолди энди хотира бўлиб,
Гулғунчалар терган гул чоғим.
Гулим бир қиз қўлида сўлиб,
Қолди менинг гулзорим – боғим.

Остонада мени кузатган
Мунгли кўзлар – бир меҳр қолди.
Ўша қирда – мени узатган –
Болалиқдан бир қабр қолди.



ФАЛАКНИНГ ГАРДИШИ

Фалакнинг гардиши яғир кифтимга,
Оғриқли, ўкинчли тиғ бўлиб ботмиш.
Калавам сиғмайин мўъжаз кафтимга,
Оймомо ёғдуси тонг бўлиб отмиш.

Намсиз киприкларим тортқилаб боғлар
Изтироб, армоннинг қароқчилари.
Зил-замбил бошимни кундага чоғлар
Сочим тараб гуноҳ тароқчалари.

Умр дафтаримнинг бўш варақлари
Оққушдек чайқалиб учдилар бир-бир.
Эй вох, чақин урган дарахт сингари
Бесамар этдими умримни тақдир?!

Йўқ-йўқ, зинҳор қисмат қули эмасман,
Не деса ҳукмини жо-бажо этган.
Мевасиз дарахтдек хазон бўлмасман,
Ҳаёт чашмасига илдизим етган...



ВОЛИДАМГА ЭҲТИРОМ

*“Сочганларим гавҳармас, болам,
Муҳаббатнинг уруғи”, деди.
Умидлардан яшнади олам,
Гўё жаннат пойимда эди...*



ЮЗДАГИ ЁЗУВЛАР

Инсоннинг ҳаёти жуда мураккаб,
Қувончлар, ташвишлар юзда мужассам.
Онам чехрасига тушган чизиклар
Бундан дарак берар зимдан қарасам.

Лек ўқий олмасман бу ёзувларни,
Сўзбоши даладир, ё балки пахта.
Эҳтимол, меҳнат деб ёзилганмикан
Юрган йўлларида қолган харита.

Эҳтимол табиат нисор айлаган
Жаннатий аёлга эҳтиромдир бул.
Чунки шу ёзувга тикилганимда,
Волидамга меҳрим ортади нуқул.



СОҒИНЧ

Бола эдим... дилда ўт қайнаб,
Қуёш билан ўйнардим, Она.
Кечалари юлдузлар санаб,
Орзуларим куйлардим ёна.

Ўйғотарди шўх шаббодалар,
Тоғ лоласи солланса дилхуш,
Куй чалардим ҳар кун тонг саҳар,
Қалбим сири эди ҳар товуш.

Мажнунтоллар мисоли ҳур қиз,
Нозланганча сочин тарарди.
Ўсма қўйган сулувдек ялпиз,
Сой бўйида мени кутарди.

Бола эдим, унинг дунёси
Хаёллардек эди нурафшон.
Дилда поклик меҳригиёси
Барқ урарди ҳар лаҳза, ҳар он.

Бугун эса олис болалик,
Олисдадир бамисли осмон.
Не бахт ўшал шўх шалолалик
Гоҳи дилга бўлади меҳмон...

Баъзан дилда яна ўт қайнаб,
Болалигим ўйлайман, Она,
Бироқ энди юлдузлар санаб,
Йиғлагайман ёлғиз, пинҳона...

ХАСТАЛИК

Аланга ичида ёнар вужудим,
Юрагим сикмоқда ботиний оғриқ.
Наҳот, ўлсам, ахир кўпдир умидим,
Кўзимга қорайиб кўринар борлиқ.

“Аҳволи мураккаб, шошилмоқ даркор,
Ташҳис аниқ бўлар касалхонада”.
Дарддошим – ёримни қистаб шифокор,
Ўз фарази-ла қиларди зада.

Ортидан сарғайган япроқлар экиб,
Машина шамолдек елиб кетарди.
Ота уйим, қишлоқда йўлга кўз тикиб,
Мунис онажоним интиқ кутарди...

Шу лаҳза ўрнимдан турдим у илкис,
Хайқирдим қолдириб шифокорни лол.
Ахир юрагимда тошиб кетган ҳис
Изн бермагайдир ётсам бемалол:

“Машинани тезда тўхтатинг, доктор,
Мен касал эмасман – фақат ичикдим.
Фарзандлар олдида бўлмай, деб “қарздор”,
Онамни кўрмоқдан анча кечикдим”.



ТУШ

Ҳали манзил узоқ,
Ҳамма ухлаган.
Оҳиста тебраниб бормоқда поезд.
Тушида алахсиб ҳамкупе йигит,
“Ойи, ойижоним” дер эди тез-тез...

Билмам, қайси манзил ёки қай бекат,
Поезд қичқирганча тўхтади бирдан.
Ухлаб келаётган ҳалиги йигит,
Сакраб туриб кетди ётган жойидан.

Маъюс нигоҳида ялтираб шабнам,
– Туш кўрибман, ака, – деди дафъатан.
Тушимда беланчак... Раҳматли онам,
“Алла болам” дея тебратар экан.



МАНТИҚ

Ноль – йўқлик дегани илми ҳисобда,
Шунинг учун ҳеч ким ўрганмас уни,
Лек у энг катта сон мантиқ китобда,
Гўё бутун борликда жамдир мазмуни.
Ваҳоланки, бирнинг ортига
мингта ноль қўйилса неча бўлади?
Қанча бўлса бўлар,
лек менинг онамдан
қарзимчалик катта бўлмайди.



ТАЗОД

Учрашувда, Онажон,
Сизга атаб шеърлар ўқийман.
Ашъорларда мақтайман Сизни,
Бироқ токчадаги
чанг босган
менга мудом
меҳр-ла боққан
суратингизни
Артишга ҳеч вақт тополмайман...



ТАШБЕҲ

Хушбўй ҳидлар
менинг
хотираларим уйғотар.

Ёмғир ёғиб,
тупроқ ҳиди таралса агар,
деҳқон отам ёдимга тушар.
Тандирда қизариб турган
Нон иси димоғим қитиклаганда,
Онажоним кўз олдимда бўлар намоён.
Ногоҳ булбул наво айласа,
Хушбўй атиргуллар бўйи таралса,
Хаёлимга келар
маҳзун байт, ғазал
хамда унга сабаб бевафо гўзал...



ИСТИОРА

Келдим кеча Онам қошига,
Мен булутнинг қўлидан тутиб.
Дедим, Она, қилинг фотиҳа,
Орзу деган неvara кутиб.

Кўкдан Онам юлдузлар териb,
Мунчоқ осди унинг кўксига.
У турарди қоматин кериb,
Қолганини сочди устига.

“Сочганларим гавҳармас, болам,
Муҳаббатнинг уруғи”, деди.
Умидлардан яшнади олам,
Гўё жаннат пойимда эди...

Қуёш бўлди тўнғич ўғлимиз,
Ҳилол бўлди кенжа қизимиз.
Само – бешик, шамол – овунчоқ,
Дунё бўлди бизнинг севгимиз.



ОНАМНИНГ СУВРАТИ

Титроқ қўлларининг мўъжаз кафтида,
Тарам-тарам қақраб ётади шудгор.
Рангини йўқотган рўмол остида,
Кумушдек товланар бир тутам оқ қор.

Киртайган кўзлари – қуриган булок,
Қуёш ҳам уялар қараган кези.
Интилган орзуси юлдуздан йироқ,
Юзида чизиклар – темир йўл изи.

Ҳар кунни из солар ташвиш ишчиси,
Кесишиб-кесишиб кетган бу излар.
Бекатсиз излардан шошиб ўтади,
Вагон-вагон армон ортган поездлар.


* * *

Татидим, неки ризқ – борлиқ инъоми,
Худога шукрки, йўқдир ёмони.
Лек бари-баридан устун ва тотли,
Менинг онам ёпган Самарқанд нони.



МАЖНУН ЙЎЛИ

*Мен ўлсам қабримга қабр тош қўйманг,
Бошим узра экинг бир туп мажнунтол.
Кун келиб бўй чўзса, исёнга йўйманг,
Тагида бир жуфт қалб айласа висол.*



ОШИҚЛИК

Сиздан мактуб олдим, азиз Онажон,
Мухаббат боғида гул терган чоғим.
“Суйганинг бор экан эшитдим шу тонг, –
дебсиз: – Мен айтган у қиз-чи, тойчоғим?”

“Нечун келмай қўйдинг?” – ёзибсиз яна,
Қайтмоғим хоҳлабсиз Ишқнинг сайлидан.
Гар қалбим билсангиз, оҳ, азиз Она,
Сиз учун кечурман мингта Лайлидан...


Келинг, фотиҳага, ойи, қўл тутинг,
Ишқ юрти аҳлига бўлдим мен мафтун.
Олма пишгунича озгина кутинг,
Бизнинг ҳам ҳовлида тўй бўлар бир кун.



ЮРАК

Ҳар қандай зотни ҳам ўлдиран эмиш,
Инфарктга чалиниб қолса гар юрак.
“Умидим кўп эди, чарчади”, дермиш,
Юрагидан нолиб баъзилар андак.

Лозим бўлса агар юракка изҳор,
Мен унга ташаккур айтардим минг бор.
Ахир, мен-ла севди, қувонди, кутди,
Ва хижрон ўтида ёнди неча бор.
Топилмас унингдек дўсту вафодор...



ЙЎЛЛАР

О, йўллар, йўллар-ей, айтингиз менга,
Қайларда юрибди менинг нигорим?
Соғинчлар ярага айланди танда,
Қайдадир, айтингиз қора кўз ёрим?!

Қайдадир, айтингиз, ўшанда менсиз,
Олисларга алдаб кузатган йўллар...
Суюнчи бераман агар айтсангиз,
Манзилга илондай узанган йўллар.

Хижрондай узунга чўзилган йўллар,
Айтингиз, қайдадир қора кўз ёрим...



МАЖНУН ЙЎЛИ

Офтобойим дедим нурли жисмингни,
Оташ ёқдинг хур кўксимнинг сўлига.
Баҳор каби кўз-кўз этиб хуснингни,
Етакладинг ошиқ Мажнун йўлига.

Нигоҳимга ёниб турган ўт солдинг,
Шоҳ этгудек муҳаббатнинг тахтига.
Юрагимдан бир умрга жой олдинг,
Лек етмадим севилмоқнинг бахтига.

Тўхфа этиб алам ила кўз ёшни,
Кетдинг сўнгра олис тунлар қўйнига.
Ортда қолдим калбга жойлаб бардошни,
Ўйнагунча шум тақдирнинг ўйинига.



ЭСКИ РИВОЯТ

Эви билан бўлсин экан орзу ҳам,
Йўқса, бир кун қалбни қийнайди армон.
Тилло остонага билиб бос қадам,
Йиқилсанг бефойда сўнгги пушаймон...

Муҳаббат истадим мен ҳам нотавон,
Изҳори дил учун юрсам-да чўчиб.
Ошиқлар ҳақида ўқиб кўп дoston,
Мажнундек тўлғондим ёстиғим қучиб.

Ҳа, мен ҳам ошиқман:

“Қани у рақиб,
Уялмай мен севган қизга гул тутган?
Кўксига жийданинг гулидан тақиб,
Мен айтган сойликда ул ёрни кутган?!

Тамом.

Бугун рақиб, аҳволингга вой,
Ўласан!..” Қўлимда бобом ҳассаси...
Тутволдим рақибим... мана ўша сой...
Қиз уни танлади, менга тарсаки...

Суймаган кўнгилга суйкалмоқ бекор,
Шул экан, қадимдан қолган ҳақиқат.
Мен эса қалбимга бериб минг озор,
Юрибман тақдирдан қилиб шикоят.

БАҲОР КЕЛДИ

“Баҳор келди!..” – хабар қилар бойчечак,
Ажиб тўйхонага айланар дунё.
Ховлидаги бир туп ўрик – келинчак,
Оппоқ либос кийиб нозланар гўё.

“Баҳор!..” – новдаларда кўз очар куртак,
Чинқириғи унинг – момоқалди роқ.
Юлдузларга балки сўзлайди эртак
Қисматдошим менинг – лолақизғалдоқ.

“Баҳор келаётир!..” – адирларда ҳам
Майсалар унади, йўқолар изим.
Юрак сирларимдан огоҳ тор хонам,
Фақат бир суратга термулар кўзим.

“Баҳор келяпти!..” – чуғурлашади
Тепамда айланиб бир жуфт қалдирғоч.
Сўнгги сиримни ҳам ўғирлашади,
Бағрига илк сирим ўйган қайрағоч...

“Баҳор келаётир!..” – кўчадан бир тўп
Тўпори болалар ўтди югуриб.
Кўксимда нимадир узилди шу топ,
Суратидан юзим олдим ўгириб.

“Баҳор келаяпти!..” Кошки қараса...
Қўлида адашим – қоракўз ўғли.
Ёнида қаддини ғоз тутган эса,
Собиқ хат ташувчи ўртоғим – ўғри...

ҚАФАСДАГИ ДУНЁ

Қафасдаги қушга ачинар укам,
Поклик тимсоли у, меҳридир дарё.
Ахир шу ёшида билсин қайдан ҳам,
Қафасли эканин аслида дунё.

Мана, ҳатто ёлғиз юрагим менинг,
Кўкрак қафасимда йиғлагайдир қон.
Бунга-да розиман, нигоҳи ёрнинг
Киприк қафасида қолгани армон.

Оҳ, буларни қайдан билсин ёш укам...



ТУҒЁН

Тонгда қуёш ўпар киприкларимни,
Ёқимли шаббода сочим силайди.
Келтириб ёнимга этикларимни,
Итим ҳам ялиниб қўлим ялайди –
Боргин деб...

Бошларин тебратиб йўлимда гуллар,
Қувончга кўмишиб, тилашар омад.
Гул васлидан масрур ошиқ булбуллар
Бахтдан қўшиқ айтар мисли хушомад –
Юргин деб...

Майсалар шивирлаб кўрсатар йўлим,
Дарёлар кулади, олам сабоҳат.
Ялпизлар таратиб шод этар кўнглим
О, хушбўй бир хидки, номи Муҳаббат –
Чопгин деб...

Интизор кўзлардан сачрайди учқун,
Юрагим кутади гул хидли хабар.
Бироқ сен қайдасан, келмайсан нечун,
Табиатни мафтун айлаган дилбар –
Келинг деб...

МУҲАББАТДАН ВАТАН ҚУРАМАН

Зулмат эмас бу кўҳна дунё,
Ёлғизликни тан олмас бир зум.
Кўкда қуёш сочмишдир зиё,
Нурларига ювгайман юзим.

Кечалари эсар шаббода,
Кўк уммонда қайиқсимон ой.
Кавокиблар чакнар фазода,
Мусаффо тоғ очмишдир чирой.

Жуда баланд ул мовий тоғлар,
Худди менинг орзуим каби.
Қандай гўзал бу ёшлик чоғлар,
Раво бўлса дилнинг матлаби.

Ялтираган оппоқ қор кечиб,
Кетар бўлдим ҳув ўша тоққа.
Орзуларнинг шаробин ичиб,
Қувват олдим қўлу оёққа.

Бахтиёрман – мен бахтга ёрман,
Хур ёшликнинг завқин сураман.
Ишқ йўлида мангу бедорман,
Муҳаббатдан Ватан кураман.


ИЛК ШЕЪР

Бу тун туш кўрибман, тушимда, ажаб,
У билан гулзорда юрган эмишман.
Анбар сочларини оҳиста силаб,
Алвон атиргуллар терган эмишман.

Жўшқин сой бўйида жўшиб, энтикиб,
Роз этар эмишман ишқимни шеърда.
У дермиш ўзини орзуга кўмиб,
Наҳотки шу толе бизнинг тақдирда.

Висол оғушида васлидан сархуш,
Бошидан сочибман турфа хил гуллар.
Қамрабди қалбимни ажиб бир туйғу,
Севгимиз куйлабди ҳатто булбуллар...

Бу тонг ғунчалардан ясаб гулдаста,
Ўша ойжамолнинг келишин кутдим.
Ва тушда гул тутган қўлларим ила
Севгига аталган илк шеърим тутдим.



ИШҚ ЎТИ

Ошиқ этсин экан ҳар зотни Аллоҳ,
Қовурғалар синсин юрак зарбидан.
Юз йил фароғатда яшамоқ гуноҳ,
Бир зум бўлса қийнал ҳижрон дардидан.

Надир кўзёш ва ғам, завқ ва шавқни ҳам
Билар фақат ошиқ бўлган бандалар.
Ғар бўлса дунёда севгисиз одам,
У ҳам қабрларда ётган мурдалар.

Танграм ёр васлига етказса ногоҳ
Абасдир мен учун жаннатга ҳавас.
Ёрим яшар уйни этгум саждагоҳ,
Мен энди Мажнунман, Олимжон эмас.

Ишқ ўти жаҳаннам ўтидан оғир,
Бошимдан кечирдим фарёд этмайин.
Ҳар не ишга ёлғиз Аллоҳим қодир,
Балки энди менга жаннат ҳам тайин.



СЎНГГИ СЎЗ

Мен бола эканман... фолбин бир аёл,
Субҳидам чоғида уйга келибди.
Онамга: “Ўғлингни туққанми хаёл,
Тилсиз қолиб бир кун ўлади”, дебди.

Лек айта олмабди у фолбин хола,
Не бўлишин менинг энг сўнгги сўзим.
Айтмабди кўрса-да, онам минг чора,
Билармишман гўё уни мен ўзим...

Ҳа, ўшанда фолбин аёл айтгандек,
Тилсиз қолиб бир кун ўламан, албат.
Лек аниқ биламан, иймоним бешак,
Сўнгги сўзим менинг бўлар МУҲАББАТ.



ГУЛИМ

Гулим, гулим,
Самоларга етди-ю, аммо
Ёлғиз сенга етмади қўлим.

Гулим, гулим,
Якдилмиз деб ўйлагандим-о,
Афсус айри тушди-ку йўлим.

“Югурганмас, буюрганники,
Омин”, деди отанг – далли чол.
“Синглисини олинг, сизники”,
Дея алдар онанг ҳам беҳол.

“Асли бир кам яралган дунё,
Бахтли бўлинг”, – дединг паришон...
Ўғлинг Мажнун бўлсин, илоё,
Нелигини англагин хижрон...

Гулим, гулим,
Самоларга етди-ю, аммо
Ёлғиз сенга етмади қўлим...



МУХЛИСА

Қалбимга бир дардни солди, худойим,
Забоним сайратар бир сўз – МУХЛИСА.
Шундан бери топмай ер-кўкда жойим,
Исмингизга илк шеър битдим, алқисса.

Мухлис, кўзларингиз жуда ҳам гўзал,
Шамсиқамар ошиқ мовий бир денгиз.
Шу денгизга чўкиб ўлганим афзал,
Мен – Мажнунга не шарт яшамоқ Сизсиз.

Ҳасрат чаманидан гулдаста териб,
Тунги хаёллардан илк бўса олдим.
Мухлис, кўзингизга термулавериб,
Ўзим ҳам мухлисга айланиб қолдим.



АЖР

Йигирма йил кутдим тунлари бедор,
Тангрим васлинг охир айлади ато.
Не бахт, ёнимдасан, қувончдан, дилдор,
Исмимни унутиб қўйганман, хатто.

Бугун хиром этур дунё мен учун,
Бошимдан нур сочур ишқнинг офтоби.
Биламан, қачондир ўлдирар бир кун,
Шу қайноқ бўсанинг қийноқ азоби...



ЎША МЕН БЎЛАМАН

Сени деб яшаса бир бахти қаро,
Йўлингда Мажнундек кутса кунаро,
Пойингда бош урса ҳар тонг, нигоро,
Унутма, ўша Мен бўламан, дилдор...

Соядек эргашиб, гулдаста тутса,
Келмасанг жунжикиб тонггача кутса,
Ҳажрингда оҳ урса, йиғлаб, қон ютса,
Унутма, ўша Мен бўламан, дилдор...

Хиёнат хабари унга ҳам етса,
Она қишлоғидан бош олиб кетса,
Армон-ла дунёни абад тарк этса,
Унутма, ўша Мен бўламан, дилдор...



ИШК МАДХИЯСИ

Кулбам узра қамар нур сочди яна,
Бахтнинг ҳидларига тўлди жаҳоним.
Армон бу кун менга буткул бегона,
Энди Сен меники,
 меники,
 ЖОНИМ.

Тошларда кўз очган майсалар – умид,
Мухаббат юртида сузмोकда қоним.
Бир кам бу дунёда барчаси мавжуд,
Энди Сен меники,
 меники,
 ЖОНИМ.

Гўдак ингасидек ростдир ҳар сўзим,
Асрларга татир бу бахтли оним.
Қувонч ёшларига очундир кўзим,
Энди Сен меники,
 меники,
 жоним.

Булбуллар хониши – ишқ мадхияси,
Ҳумо қуш кўзлари – Ватаним, шоним.
Либосинг – оппоқ тонг – Тангри ҳадяси,
Энди Сен бир умр
 меники,
 жоним.

СУМБУЛ СОЧЛИ МАЛАГИМ

Ойнинг танҳо синглиси,
Атиргулнинг кулгиси,
Келар мени билгиси,
Сумбул сочли малагим –
Асир этай юрагинг!

Бахт ин қурган кўзига,
Булбул шайдо сўзига,
Офтоб ошиқ юзига,
Хипча белли малагим –
Нечун йўқдир дарагинг?

Кулганда гул очилган,
Йиғласа дур сочилган,
Боқса жондан кечилган,
Ҳилол қошли малагим –
Сен ўзингсан керагим.



ЖОДУГАР

Телефон жиринглар... яна ўша қиз,
Маъюс бир оҳангда шивирлар секин.
“Мен Сизни севаман, кета олмассиз,
Жодугар деб мени ўйламанг, лекин...”


Кулади...

Мен жимман...

Қўяр дастакни,
Алоқа узилар, дукиллар юрак.
Қай ҳолда тушунай бундай истакни,
“Жодугар”га мендан ўзи не керак?

Қийналма, эй юрак, дардларинг курсин,
Бу ахир ғўр қизнинг ҳазил сўзлари.
Муҳаббат нелигин қайдан ҳам билсин
Ҳиссиз телефоннинг совуқ симлари.

Тинч қўй энди, юрак, гуллар алдаган,
Армонлар мозори – куюк бағрни.
Ўшанда оққушлар кўзёш-ла кўмган,
Севгидан кўксимда қолган қабрни...



АЙРИЛИК

Ох, бу кун бўғзимга қадалди армон,
Кўксим ерга бериб сассиз йиғладим.
Ёрим келин бўлди...

кетмоқда карвон —
Айрилиқ ўтида бағрим тигладим.

Жудолик аламим – қаро кунларим,
Қолди ҳассасига суяниб отам.
Гапирмади бу кун шўх укаларим,
Пана-паналарда йиғлади онам.

Мунгли кўзлар бу кун қайга термулар,
Шохи синиб ҳўкиз қайтди подадан.
Аза айтиб кўкда учди турналар,
Итим яраланиб келди тўдадан.

Ох, мени қай кунга солдинг, эй тақдир,
Токчада китобдан учди варақлар,
Сарғайганча чирт-чирт узилди бир-бир,
Ишқий мактубларим битган япроқлар.

Ох, бу кун бўғзимга қадалди армон...




БЕШИНЧИ ФАСЛ

Қўшни ҳовлидаги ўрик гуллаган,
Қушлар наво этар баҳорий ялла.
Чуқурларда ёмғир суви кўллаган,
Жўрам келинчаги айтарди алла...

Бизнинг ҳовлимизда хазонрезги пайт,
Қушлар тарк этишган бешинчи фасл.
Қоғозда ингранар уч-тўртгина байт,
Тушларимда ҳадя этарсан васл.

Хонамда ёлғизман.

Хаёлимдасан,
Тамаки тортаман, қаддим букилган.
Юз, йўқ, минг йил бўлди, кутаётирман,
Соқов телефонга кўзим тикилган...



САВОЛ

Мен ўзимни юпатдим охир,
Сени олиб бермади отам.
Сен – Зухросан, Мен – ожиз Тохир,
Бизга ҳеч зот бўлмади Ҳотам.

Мен ўзимни алдадим яна,
Сен бегуноҳ, гуноҳкор Онам.
Фақат битта айтгулик таъна,
Тегиб кетдинг индамай Сен ҳам.

Болаликдан улғайдик бирга,
Фасли ёшлик ажралдик ногоҳ.
Мен шаҳарга... сен тегдинг эрга...
Юрагимни хаста этди оҳ...

Эслайсанми, боғча холамиз,
Ўтказганди байрам ўшанда.
“Келин-куёв” бўлдик иккимиз,
Оқ чойшабдан тутиб гўшанга...

Бола эдик... Талашиб юлдуз
Менинг бошим ёргандинг бир бор.
Ўтди йиллар, танамда хануз
Ўша юлдуз – муҳринг изи бор.

Мен ўшаман.
Наҳот унутдинг,
Эсла, Онам – боғча холани.
Ва айт кимга қолдириб кетдинг,
Муҳринг босиб қўйган болани...

ИЛҲОМ ПАРИСИГА

I

Киардинг хонамга тунлар бесўроқ,
Лабингда ёнарди ўтли табассум.
Қоғозга кўмилган танам кўрибок,
Бенасиб бахтлардан сўзлардинг бир зум.

“Сен ҳали беармон шоир бўласан,
Шеърларинг ўқийди фақат булбуллар,
Ватанинг тафтидан нурга тўласан,
Саломлар беради эгилиб гуллар.

Жаннатга айланар шунда Она Ер,
Одамлар қуёшдан меҳр соғади.
Ёзасан капалак қанотига шеър,
Осмондан қор эмас, бахтлар ёғади.

Юмушинг бажарар найлардаги куй,
Юзларинг чаяди тонгги шабада.
Хаёллар сен учун бўлар мисли уй,
Совғалар бераман гуллар қатида.

Камалак рангидан сиёҳ келтириб,
Сатрингга қучоқлаб гуллар тераман.
Шеърларинг битгунча қошингда туриб,
Нурлардан кўйлақлар тикиб бераман.

Фақат Сен мени кут, кутгил бир умр,
Қайғунгни кўмиб мен, албат, келаман.
Ўша тонг отгунча қилолсанг сабр,
Навоийдек ўғил туғиб бераман”.

II

Нозик бармоқларинг сочимни силаб,
Ўзига ром этди ошиқ қалбимни.
Ўшанда бир бўса – олгандим тилаб,
Ҳамон куйдиради муздек лабимни.

Мени кут, мен албат қайтаман, дея
Хонамдан оҳиста кетгандинг чиқиб.
Мен кутиб яшайман ҳар бир сония,
Лек нечун бунчалар кетдинг кечикиб?!



КЕЧИККАН МУҲАББАТ

Келур бўлсанг ёнимга агар
Муҳаббатдан сўзлама фақат.
Ҳаётимни қилди у заҳар,
Юрагимни музлатиб қат-қат.

Ёрилганди ўша чоғ юрак,
Нажот истаб сендан муҳаббат.
Аммо кетдинг бесас, бедарак,
Шўх қалбимга қилмадинг шафқат.

Олов ичра ёнганда юрак,
Гул очилиб, келганди баҳор.
Севгимни сен этганингда тарк,
Хазон узра учқунлади қор.

Юрак музлаб бўлганда адо,
Қайтиб келдинг ёнимга нега?
Қалбим энди берурми садо,
Термуларсан бунчалар менга?

Чорламагин, қилмагин имо,
Тошга дўнди кўксимда юрак.
Хотирамда қоларсан, аммо
Кеч бўлди-ку энди кечирмак.



СЕВГИ ГАДОСИ

Атиргул ифорин хидлаб тўйгунча,
Мунаввар ҳаётни сезмасди кўзим.
Майи ноб симириб хумор бўлгунча,
Мастлик нелигини билмасдим бир зум.

Бу тонг ёноғингдан олиб бир бўса,
Ўзлигим унутдим, бу қандайин сир.
Сочингни дор каби солиб бўйнимга,
Мухаббат қасрида айладинг асир.

Энди сир ошқордир: юракда ҳоким
Туйғуларим бари – васлинг фидоси.
Англадим – вужудда қалб гумроҳ, токим
Бўла олмаса гар севги гадоси...



БИР ҚАДАМ

Очиларди эшик дафъатан,
Юрак қўшиқ бошларди шу дам.
Дил ёнарди ногоҳ бу бахтдан
Остонамга қўйсанг Сен қадам.

Оламга нур бахш этган ташриф,
Ўксик кўнглим бахтга беларди.
Кўрганларнинг мендайин ғариб
Толеига ҳавас қиларди.

Соғинчларинг айтардинг бир-бир,
Ўртанарди юрагим ночор.
Азобларим сендан тутиб сир,
Этолмасдим севгимни изҳор.

Кетар бўлсанг сўнарни зиё,
“Хайр” дердинг, кипригингда нам.
Кўзларимга тор эди дунё,
Соғинтириб қўйсанг гар қадам...

Бу кун, жоним, чекаман фарёд,
Ишқимизга ҳамроҳ бўлди ғам.
Қалбимизни қийнар умрбод
Сен адашиб босган бир қадам...



БАҲОР ХАЗОНЛАРИ

Биз кезган боғларда хазон тўшалган,
Энди бунда ҳоким қушлар галаси.
Олмаларнинг ҳидин ўғирлаб кетган,
Қачондир, сездирмай тун шабадаси.

Саждага чўзилган қўллар сингари
Хаёлчан тебранар яланғоч шохлар.
Қўшилиб йиғлайди босганим сари,
Хазонмас – орзудан тул қолган оҳлар.

Елкамда зил-замбил хаёллар тоғи,
“Буларнинг барига ўзим гуноҳкор”.
Ох, бу не кўргилик. Шу кузак чоғи
Йўлакларда бесас йиғлайди баҳор.

Хазонзорга ўхшар дунё, чамамда,
Мен энди ёлғизман, топганим фақат –
Қачондир кесилган бир тўнка ҳамда
Етимликда йиғлаб юрган муҳаббат.



ҚАЙТМАС КУНЛАР

Бегонам, термулманг, зинҳор Сиз ортга,
Мен энди кетарман – тин олсин юрак.
Ахир муҳаббати сўнган йигитга,
Айтинг, бу дунёда яшаш не керак?!

Бевафом, не қилай, унутгум Сизни,
Висолга етибдур қай Мажнун, қачон?
Тақдир ё Тангримас айирган бизни,
Кўксимга из босди Сиз кетган карвон.

Илоҳам, қайғурманг, энди мен учун,
Мен ишқнинг кўз ёшин ичиб ўламан.
Қабримга гул қўйган авлодга бир кун
Шеърлари йўқолган шоир бўламан.

Оққушлар ўғирлаб кетар армонни,
Тонглар ҳадя этар минг орзу-хаёл.
Ўшанда Сиз ваъда қилган ўғлонни,
Менга инъом этар бир бахтли аёл.

Ҳаммаси изига тушади такрор,
Хазонлар ҳеч қачон қўшиқ айтмайди.
Қайтади бахтларим, қайтади баҳор,
Фақат Сиз-ла кечган кунлар қайтмайди.




ҚАЙДАСАН

Охларни сипқордим осмонни қучиб,
Қувондим андухлар дарёсин кечиб,
Куйладим булбулнинг кўз ёшин ичиб,
Қайдасан, қийнама хаста юрагим,
Хотирага она бўлган малагим.

Осмондек бағримни чакмоқдек тилдинг,
Кўзёшим самога юлдуздек илдинг,
Рухимни девона шамоллар қилдинг,
Келмадинг, кибри ҳам само, керагим,
Ойга сингил бўлган танҳо малагим.

Термулиб ишқимнинг кўзи толмади,
Бағрим ёниб-куйди, кули қолмади,
Бахтим садқа қилсам, ҳеч зот олмади,
Армонга ёр бўлди эзгу тилагим,
Мени Одам этган Ҳаво малагим.



КЎЗ ЁШЛАРИМ

Сен мени тарк этдинг —
йиғладим ночор,
Оқди кўзёшларим мисоли дарё.
Бағримни оташда куйдирдим бекор,
Рангидан тунларни кашф этди дунё.

Пешонам шўр экан, орзулар эссиз,
Бу кун мен хастаман, нигоҳларим кўр.
Оққан кўзёшларим шу мовий денгиз,
Ишон, ҳатто таъми кўзёшимдек шўр.



ҚАРОҚЎЗ МАЛАК

Келгин, эй табибим, қароқўз малак,
Жонимни олмасдан бу дарди хижрон.
Бунчалар қийнадинг, сочи жамалак,
Қилмоқчи бўлдингми севгим имтиҳон.

Магарки, қалбимни билмоқ истасанг,
Бир умр мафтунинг – кўзларимга боқ.
Унда хижрон билан қилар баҳсу жанг,
Сенинг ишқинг ила мунаввар қароқ.

Келгин, эй табибим, қароқўз малак...



РАШК

Яна кўклам келди.

Суюниб жоним,

Гул-лолалар ичра мени унутдинг.

Рашкимни келтириб,

жону жаҳоним,

Менингмас, гулларнинг қўлидан тутдинг.

Сочингдан таралар бўйлари бахтнинг,

Кўзларингга қамар кетмоқда чўкиб.

Бир бор қарамадинг, унутдинг аҳдинг,

Менингмас, майсалар лабидан ўпиб.

Ёнингда ёлғизман, дилимда бир ўй,

Қувончлар Сен билан, қайтади баҳор.

Лек Олимжон кетса, дилдор, билиб қўй,

Ўн саккиз ёшингдек қайтмагай зинҳор...



БАХТ ЙИЛИ

Янги йил келмоқда, барча шод, хуррам,
Гулгун чехраларда бахт очун қурган.
Бахт йили келмоқда – энг олий байрам,
Бу қутлуғ кунларни Тангри буюрган.

Янги йил келмоқда, олам мунаввар,
Қафасига сиғмай ўйнар юраклар.
Шўх куйга жўр бўлиб қадах жаранглар,
Қалбларни забт этар эзгу тилаклар.

Шодлик она бўлган заминга бу кун,
Бахт гўё бешигу, дил олар ором.
Ох, булар барчаси ётдир мен учун,
Асло нотинч қалбим эта олмас ром.

Ватанда Ватанни соғинган каби,
Одамлар ичида ёлғизман шу дам.
Нигоҳим ўпади хижроннинг лаби,
Мен – исмин унутиб қўйган бир одам...

Янги йил келмоқда, барча шодумон,
Ташқари қарайман... дарак йўқ қордан.
Бахт йили келмоқда, негадир ҳамон,
Юрак ўртанади, хабар йўқ ёрдан...



АРМОН

Юлдуздай ногаҳон сўна бошлади,
Болаликнинг бебош орзуси бир-бир.
Шиддатим илинжга дўна бошлади,
Ҳамроҳга айланди ёлғизим – сабр.

Хира тортиб кўзлар, ўчди хотира,
Тиззалар қалтираб, қуриди мадор.
Тарк этди тишларим, қўнди бошимга,
Ердан ёғаётган беаёв оқ қор.

Энди қисматдошим, сўнгги дўст – юрак,
Кетмоққа шошмоқда... этаяпман ҳис.
Лек ҳамон тушимга кириб чиқади
Суйганим, мактабдош, ўша сулув қиз...



ҲИЖРОН

Дунё – тўрт деворли мўъжаз бир хона,
Яшамоқ – кимгадир интиқлик, зорлик.
Орзу – туғиб ташлаб кетгувчи Она,
Ҳижрон – ёдга тушса титровчи борлик.

Яшайман хастадил, шулар тўрт мучам,
Хаёлим ўғирлар бир қизнинг расми.
Кунлар кўзёш каби тўхтамас ҳечам,
Суратдаги энди бировнинг хасми.

Тилимни тишлайман, сўз демак малол,
Кўксимда ярадек чимиллар армон.
Бироқ мен девона бўлмадим, алҳол,
Мени шоир қилди бағри хун ҳижрон.



УМИД

Совчилар келади ҳар куни ўнлаб,
Бир олам совға-ла яқин-йироқдан.
Бириси шаҳардан келар “қиз тилаб”,
Бошқаси келади қўшни кишлоқдан.

Она дарҳол мактаб кетар қизини,
Ота эса мағрур, ўтирар тўрда.
(Ўчириб бўларми совчи изини,
Ахир бу қизлари жудаям зўр-да).

Совчилар совға деб келин либосин,
Минг бир муллоларга ўқитиб келар.
Ота баланд қўйса қалин баҳосин,
Бирлари йиғласа, бирлари кулар.

Келинлик либосин кийиб устига,
Тошойна ёнида соатлаб турар...
Бечора қариқиз ўйлаб ростига,
Ҳар шомдан тонггача шу тушни кўрар.



ОТЕЛЛО МОНОЛОГИ

Номардлик айлади менга бу тақдир,
Умидларим асир тушди армонга.
Риёкор аламлар пайт пойлаб охир,
Муҳаббатим арзон сотди гумонга.

Қотил шубҳаларим севгимни тутиб,
Кўксимга тиғ ила аксин ўйишди.
Етим орзуларим ўлимдан қўрқиб,
Бурро тилларини ютиб қўйишди.

Дунё ишончимга ёлғонлар айтиб,
Дардларимнинг зафар тўйига чорлар.
Ўтган ҳур кунларим ёдимга қайтиб,
Баҳорда бошимдан ёғдирар қорлар.



КУЗАКЛАРДА ЙИҒЛАТГАН БАҲОР

Мен дунёга йиғлаб келгандим,
Лекин зинҳор йиғлаб кетмасман.
Жоним, сени жондин севгандим,
Ҳамон севгим инкор этмасман.

Нечун бугун мен ёлғиз қолдим,
На дўст, на ёт боқмайди қиё.
Дилкаш излаб чарчадим, толдим,
Наҳот шунча бағритош дунё.

Тунлар бахт деб эртақлар айтдинг,
Исмингни-да сўрмадим бир бор.
Ташлаб мени, қайларга кетдинг,
Кузақларда йиғлатган БАҲОР!



* * *

Мен ўлсам қабримга қабр тош қўйманг,
Бошим узра экинг бир туп мажнунтол.
Кун келиб бўй чўзса, исёнга йўйманг,
Тагида бир жуфт қалб айласа висол.

* * *

Муҳаббат – бу ёнаётган шам,
Мен – парвона, унга интилган.
Шам тафтидан эриб битмас ғам,
Мен ҳижронда қайта тирилган.



ҚАДР

*Ахир мен – шоирман, оддий кишимас,
Муҳаббат гадоси, хаёл одами.
Шундай яшаб кетмоқ менинг ишиммас,
Мен – эркка интилган халқнинг қадами.*



“ШОҲНОМА”НИ ЎҚИБ...

“У меҳрдан йироқ.

У темир одам,

Қўллари кетмонмас, тутади шамшир.

Аждар ҳам қочади ташласа қадам,

Муҳаббат не қилсин сарбозда, ахир.

Худо юрак эмас, кўксига унинг

Темирдан ясалган чаённи таққан.

У гулни ҳидламас, сўндир умидинг,

Онаси одаммас, зўр йўлбарс туққан.

Сен гулсан, тиконмас, унутма зинҳор,

Сухроб сен ўйлаган йигитмас, ишон”.

Шу сўзин такрорлаб ҳар кеча минг бор,

Гўзал нозанинни аврайди шайтон...

Тўғри, Сухроб сарбоз.

У темир одам.

Метин қўлда шамшир, ўзи қўрқмас шер.

У Ватан ишончи, фахридир ҳар дам,

Йўқ, санам, уни сев!

Ўғил туғиб бер!!!

.

Шайтоннинг сўзига инонма асло,
Бўхтонлар тўқийди шумқадам нукул.

Сухробда меҳр, кўзёш, Ватан бор, ҳатто,
Темир дубулғасида ўсган чинни гул.

У бекор оғритмас биров дилини,
Лек шайтоннинг борми кўзёш, Ватани?
Ҳатто қалдирғочнинг тишлаб тилини,
Бўса сўрган каби ичар қонини..

Шайтоннинг сўзига инонма асло,
Сухробда меҳр бор,
бор ишққа вафо...



ТУНГИ ХАЁЛ

Кўлимдаги чивиннинг қанотин юлиб,
Столнинг устига қўйиб юбордим.
Бечора учишни унутган бир зум,
Ҳатто юришни ҳам эплай олмайди.
Ва шунда бирдан титрай бошлади таним,
Гўё менинг ҳам қанотим юлиб,
сирпанчик лойда,
Кимдир томоша қилиб тургандай бўлди...

У тунги ой эди.
Чўчиб кетдим ойда аксимни кўриб...



ДҮСТ

Хиёнат... Оғир экан митти юракка,
Фақат буни англадим бугун...
Дўстим “телба” деди,
 мени тарк этди.
Суйганим бошқасин етаклаб кетди,
Маъкул келмаганмиш матлабим, ғоям.

Фақат тарк этмади мени
Ортимдан эргашиб, чарчамас соям.



ХАЁТ

Тугамасдир йиғи, тазйиқлар,
Гулламасдан сўнар хоҳишинг.
Пешонангга тортиб чизиклар
Орзуингни кўмар ташвишинг.

Тундек қора сочлар ўрнида
Товланади кумуш толалар.
Варрак ўйнар хаёл қўйнида
Туғилмасдан ўлган болалар.

Сўроқ янглиғ асони тутиб,
Йўлларга кўз тикасан беҳол.
Ўғирлатган илк севгинг кутиб,
Асрларга бўласан савол...

Сен ёқтирган навбаҳор чоғи
Жанозангга чақирар кимдир.
Эслаб сени йиғлар тун бўйи,
Кўзи ожиз бир хаста кампир.

Тупроқ йўлдан кўтариб ўтар,
Тобутингни мунгли оломон.
Шу кеч эрка қизингни ўпар,
Сенга ваъда килинган ўғлон.

АПРЕЛНИНГ ТЎҚҚИЗИ

Апрелнинг тўққизи – таваллуд санам,
Кулбамда ошнолар тўпланажак кун.
Шу куни келади мен кутган санам,
Исмимни унутиб қўяман бу тун.

Бахтим-чун ичилиб шаробмас қасам,
Биллур қадахларга чўзилар қўллар.
(Ва бир кун дунёдан гар кетар бўлсам,
Қабримга шу қўллар қўймишдир гуллар).

Ўйларим чеки йўқ, дунё каби кенг...
Шу куни бир лаҳза бахтимга етгум.
Аммо шу қадахлар садосида мен,
Умр шоми томон бир қадам кетгум.



ҲУР ҚИЗ

Қиш кечаси ...
Кутилмаганда,
Кириб келди уйга совчилар.
Барча мамнун, биргина сенинг
Кўзларингдан томди томчилар.

Хаста отанг шифо топгандай,
Ўксик кўнглинг бир қарич ўсди.
Ёлғиз қолиб кетмоқ истовдинг,
Эрка итинг йўлингни тўсди.

Тақдирингни ҳал этиб сенсиз,
Ичкарида бахтлилар кулар.
Юз йил тилаб олинган бахтни
Қучиб шу чоғ йиғлагинг келар.

Шу садақа бахтни топгунча,
Қанча аёз, қанча ёз ўтди.
Гуллар билан келган баҳорлар
Армон бўлиб, куз билан кетди.

Йиғлаяпсан тўлиб-энтикиб,
Аза тутиб шуларга гўё...
Лек бир томчи кўз ёшингга ҳам,
Арзимаиди бу ёлғон дунё.

ЯХШИ ҚАДРЛАНМАС, ЁМОН БЎЛМАСА

Коинотнинг танҳо қизидирсан, Ой,
Таърифингга сўз топмай тилим лол.
Бу оқшом нақадар очибсан чирой,
Дилрозим учирсам келмасми малол.

Жисминг тош эрса-да, сенинг, эй ҳилол,
Сирли олам узра танҳосан, поксан.
Хиёнат қилмайсан, яшайсан ҳалол,
Шунинг-чун зулматда сутдайн оқсан.

Нақл бор: “Ҳар нарса олисдан аён,
Яхши қадрланмас, ёмон бўлмаса”, –
Шоир қалбидагин қиларми баён,
Юраги зардобга лим-лим тўлмаса...

Бугун пойим узра узалган гуллар
Кеча кибр ила менга боқарди.
Бугун хушомадга чоғланган тиллар,
Кеча чаён бўлиб аччиқ чақарди...


Мен Сенга кетаман.

Оҳ, қалбим яра,
Чарчадим, бошимга қўнсин хур кунлар.
Сен томон учмоққа талпинсам, қара,
Оёғимни чирмаб олибди гуллар.

МЕХРИДАН ТУҒИЛГАН НАВО

Шоирга сиғинма ва қилма ҳавас,
Бу чексиз мактовлар, чапаклар нечун?
Унга бир даста гул ҳадя этсанг, бас,
Ахир у шеър ёзмас шон-шухрат учун.

Рост, унинг ҳаётда бор тенгсиз қадри,
Лек бу зот буюклик этмас ҳеч даъво.
Негаки, шоирнинг ҳар битта сатри
Қалбидан, меҳридан туғилган наво.



СУРАТ

Ака, менинг суратим чизинг,
Яширинсин унда мунглигим.
Лабларимга кўнсин табассум,
Бахт нуридан ёришсин кўнглим.

Нигохларим қадалсин кўкка,
Бунда бўлсин туйғулар озод.
Меҳрим етсин ҳар бир юракка,
Унга боққан бўлаверсин шод.

Ҳатто қора сояларни-да,
Оппоқ рангда чизингиз, иним.
Токи, берсин дилга эзгулик
Қалбим рамзи ушбу суратим.



ҚАДР

Қаршингизда турган шоир, яъни ман —
Бугун сиз-ла борман, эртага гумон.
Шодлик ва висолдан шеър учун кечган,
Ўзимнинг кўксимга отилган камон...

Демак, меҳмон каби кўрсатинг ҳурмат,
Айбим-чун койишдан шошмай турасиз.
Жон берар чоғимда қолдиргум сурат,
Сўнг уни тўйгунча сўкаверасиз.

Ахир мен – шоирман, оддий кишимас,
Муҳаббат гадоси, хаёл одами.
Шундай яшаб кетмоқ менинг ишиммас,
Мен – эрққа интилган халқнинг қадами.

Келинг, Сиз ҳам мендек яшанг бир лахза,
Боладек беғубор бўлингиз бир дам.
Бир қушча ўлса ҳам тутингиз аза,
Ҳеч қурса бир кунча бўлинг чин одам.

Жанггоҳда аскарга ўқ тегмай ўтса,
Ўша кун шомгача қилингиз байрам.
“Инга”лаб бир гўдак оламга келса,
Мени ҳам бир бора эсланг ўшал дам.

Қаршингизда турган шоир, яъни ман —
Бугун сиз-ла борман, эртага гумон...

ЧАРЛИНИНГ ҚЎШИҒИ

Завқ етмас ҳидлашга атиргулларни,
Тоқат йўқ тинглашга шўх булбулларни,
Ҳаққим йўқ ўпмоққа нозик қўлларни,
Чўнтагимда қолган бор-йўғи бир сўм.

Уринманг, хонимлар, кўнглим ёрмасман,
Нозли нигоҳларга асло зормасман,
Кинога барибир сиз-ла бормасман,
Чўнтагимда қолган бор-йўғи бир сўм.

Саёҳат қилмоққа, афсус, вақтим йўқ,
Ресторан кирмасман – доим қорним тўқ,
Зиёфатлар – кўксим тешиб ўтган ўқ,
Чўнтагимда қолган бор-йўғи бир сўм.

Нетай, учрашувлар менга ёқмайди,
Бу юртда гадога қизлар боқмайди,
Йиғлай десам кўздан ёшим оқмайди,
Чўнтагимда қолган бор-йўғи бир сўм.

Ошкор айтсам агар яшашим хароб,
Менга аталган бу ҳаёт ҳам сароб.
Фақат сув аксида бўламан жаноб,
Чўнтагимда қолган бор-йўғи бир сўм...

БЕЧОРА

Қадахлар жаранги ажиб бир садо,
Шўх-хандон кулгилар учади ҳар ён.
Даврада муқомлар бўлмайди адо,
Хушнудлик туйғуси чехрадан аён.

Бу ёқда, бир четда ўтирибман жим,
Лиммо-лим қадахдан кўзимни узмай,
Гуноҳкор мисоли эгилган бошим,
Дўстларим завқига пинагим бузмай.

Биламан, қаршимда кимдир турибди,
Қарашга имкон йўқ ранг-баранг нурдан.
Йўқ, бу бир баҳона, асли кўрқаман,
Кетиб қолишидан
“дўстим”нинг бирдан...

Ниҳоят, чидолмай кўз тикдим унга,
Қаршимда ўтирган...
Ўз соям экан.

Қаранг, ким ачиниб турибди менга,
Оҳ, бу қисмат қандай номланар экан?



МЕҲР СЎРАБ, МУҲАББАТ СЎРАБ

Қиш...

Изғирин совуқ...

Тонг энди отган...

“Туф” десанг тупугинг музлаши тайин.

Лек бозор қизиган, одам минглаган,

Ким олар, ким сотар – изоҳлаш қийин.

Сиз ҳам келмоқдасиз...

(Дунё – бу бозор)

Йўл четида титраб ўтирмиш одам.

Садақа тиланиб қўлларин чўзар...

Тўхтанг!

Улар ичра турибман мен ҳам...

Дўмбоқ бир хоним-ла келаётибсиз,

Кимгадир узатиб арзимас чақа.

Ғамлар ўлкасидан ўтаётиб, Сиз

Ўйлайсиз: аслида дунё шунақа!

Нетай, тақдиримиз шундай ёзилган;

Еб қўйгудек менга боқдингиз, ё раб!

Кесманг...

қўлларим...

олдга чўзилган,

Фақат меҳр сўраб, муҳаббат сўраб!

МУНДАРИЖА

Қутлуг саждагоҳ

Ватан тупроғи	4
Тошкент	5
Самарқанд	6
Тонг фарзанди	8
Менинг бахтим	9
Сен халқдирсан	10

Ота меҳри

Отанининг иқрори	12
Ўкинч	13
Тол	14
Кетмон	15
Аждодлар мероси	16
Болалигим	17
Фалакнинг гардиши	18

Волидамга эҳтиром

Юздаги ёзувлар	20
Соғинч	21
Хасталик	22
Туш	23
Мантиқ	24
Тазод	25
Ташбех	26
Истиора	27
Онамнинг суврати	28
"Татидим..."	28

Мажнун йўли

Ошиклик	30
Юрак	31
Йўллар	32
Мажнун йўли	33
Эски ривоят	34
Баҳор келди	35
Қафасдаги дунё	36
Тугён	37
Мухаббатдан Ватан кураман	38
Илк шеър	39
Ишқ ўти	40
Сўнгги сўз	41

Гулим	42
Мухлиса	43
Ажр	44
Ўша мен бўламан	45
Ишқ мадҳияси	46
Сумбул сочи малагим	47
Жодугар	48
Айрилиқ	49
Иқрор	50
Бешинчи фасл	51
Савол	52
Илҳом парисига	53
Кечиккан муҳаббат	55
Севги гадоси	56
Бир қадам	57
Баҳор хазонлари	58
Қайтмас кунлар	59
Қайдасан	60
Кўз ёшларим	61
Қароқўз малак	62
Рашк	63
Бахт йили	64
Армон	65
Ҳижрон	66
Умид	67
Отелло монологи	68
Кузакларда йиғлатган баҳор	69
“Мен ўлсам...”	70
“Муҳаббат...”	70

Қадр

“Шоҳнома”ни ўқиб	72
Учинчи юлдуз	74
Тунги хаёл	75
Дўст	76
Хаёт	77
Апрелнинг тўққизи	78
Хур киз	79
Яхши кадрланмас, ёмон бўлмаса	80
Меҳрдан туғилган наво	81
Сурат	82
Қадр	83
Чарлининг қўшиғи	84
Бечора	85
Меҳр сўраб, муҳаббат сўраб	86

QUTLUG' SAJDAGOH

*Bahoriy bog'lari dunyoga mashhur,
Baxtlar vodiysida tug'ilgan bo'lsam,
Va yurt sog'inchini bilmasdan, shukur,
Har lahza elimning kamolin ko'rsam,
Bu mening baxtimdir, biling, do'stlarim...*



VATAN TUPROG'I

Har gal qishlog'imga borganim chog'i,
Bir tuyg'u dilimni titratar chunon.
Bolaligim kechgan Vatan tuprog'i
Taftidan jo'shgaydir tomirimda qon.

Butun vujudimda shijoat, g'urur,
Ona el bag'rida yana bolaman.
Shiddatini in'om etgan Bulung'ur
Suvidan sipqorib huzur olaman!

Qo'y-qo'zi boqqanim qiru adirlar
Maysalardan turfa gilam to'shaydi.
Har giyoh, har maysa suyuk, qadrdon,
Podachi bolalar Menga o'xshaydi.

Nogahon ko'zimda jilva qilar dur,
Bu sog'inch yoshimi, sevinchmikan yo,
Ko'nglimga quyilar ilohiy g'urur,
Mening yurtim tanho, Vatanim tanho!

Omon bo'l, ey Ona maskan, beshigim,
Men hamon bolangman, Senga xumorman.
Sening duong bilan baxtga eshligim,
Sening baxting ko'rib, Men baxtiyorman!



TOSHKENT

O'tgan yili Senda mehmon bo'lgan zot
Bu yil taniy olmas oy jamolingni,
Tangrim ravo ko'rmish Senga umrbod,
Mangu zavol bilmas baxt-iqbolingni.

Har go'shang bir tarix, har toshing doston,
Qadim rivoyatlar so'zlab bergaydir.
Sening madhing bitmoq emasdir oson,
Shoirilar dur kabi nazm tergaydir.

Men ham kamol topdim bag'ringda Sening,
Sening mehring bilan unib-o'sdim rost.
Ma'zur tut, g'aribdir ash'orim mening,
Biroq Toshkent desam, dil gullar qiyg'os.

Boisi aqlimni tanidim Senda,
Sen o'zing guvohsan dil izhoriga.
Onam faxr tuyar: "Bolam Toshkanda,
Yuribdi yaray deb yurtning koriga!"

Shul bois Sen Menga Onamdek aziz,
Otamdek bag'rikeng suyukli dargoh,
Umrim baxshidadir Senga shubhasiz,
Ey, Vatan poytaxti, qutlug' sajdagoh!

SAMARQAND

(Yurtimiz olimlari tomonidan shu paytgacha fanga noma'lum bo'lgan yangi sayyora aniqlandi va u jahon astronomlari tashkiloti tomonidan rasman e'tirof etilib, "Samarqand" sayyorasi nomi bilan "Kichik sayyoralar Xalqaro katalogi"ga kiritildi)

Mirzo Ulug'bekning nigohi uyg'oq,
Hamon yulduzlarga yo'ldosh Samarqand.
Shubha qilsang, zij-u jadvallarga boq,
Yangi sayyoraga nomdosh – Samarqand!

Hech narsa tasodif emas dunyoda,
Haq Tangri azmi-la aylanar davron.
Bu yurt azaldan zo'r ilmu ziyoda,
Buyuklar diyori atalgay hamon!

Sohibqiron Temur ruhi madadkor,
Buxoriy, Navoiy poyi muqaddas.
Bundadir Ko'ksaroy, Namozgoh, Sherdor,
Dunyo sayyohlari qilurlar havas.

Registon maydoni jahon san'atin
Buyuk sahnasiga aylandi chindan,
Dunyo tinglamoqda yurtim da'vatin:
O'zbek buyuk millat, kammas hech kimdan!

Boisi undadir buyuk bir meros,
Ma'naviy qadriyat ilmu irfon ham.
Hatto Afinani qilganda taqqos,
Samarqandning sha'ni turgay muhtaram.

Bejizga demaslar zamin sayqali,
Samarqand chindan-da tabarruk shahar,
Bundan-da ulug'vor bo'lgusi hali,
Bundan-da tolei bo'lgay muzaffar!

Bejizga bu yurtдан chiqmas daholar,
Bu yurtga Tangrining tushgan nazari,
Samarqandni so'z ila bo'lmas baholab,
Unga teng kelmagay olamning zari.

Bugun ham shu fikr dilda ustuvor,
Haq so'zning bo'lmagay shubha, gumoni.
Axir olam bilar, yurtni ulug'vor –
Buyuk Davlat qilgan shu yurt o'g'loni!

Mirzo Ulug'bekning nigohi uyg'oq,
Hamon yulduzlarga oshyon Samarqand.
Istasang Yulduzlar karvoniga boq,
Barcha sayyoraga Sarbon – Samarqand!



TONG FARZANDI

Men o'shanda ancha yosh edim,
Armon so'zin bilmasdi tilim.
Takrorlardi onam hamisha:
"Sen tong payti tug'ilding, o'g'lim."

Demak, bo'lgin tongdek beg'ubor,
Yashayversin qalbingda bahor.
Xazonlikni bilmagin aslo,
Nomingga dog' tushmasin zinhor..."

Men Vatanning gulbog'larida,
Bolalikning hur chog'larida,
Burgut kabi ulg'aydim erkin,
Bulung'urning qir-tog'larida.

Ilk hayotga qo'yganda qadam
Yashash nedur, bildim nadur g'am.
Bitdim xushnud ash'orlar har dam,
Yuragim dard timdalasa ham.

Gul deganim chiqsa-da tikan,
Muhabbatim bo'lsa-da armon,
Voz kechmadim ezgu tuyg'udan,
Chunki tongga farzandman hamon!



MENING BAXTIM

Meni Majnun atab ba'zi do'stlarim,
Ortiqcha muruvvat ko'rsatar har dam.
Rost, qalbda armon ko'p, lek azizlarim,
Erurman dunyoda eng baxtli odam.

Baxtliman – qo'limda hamrohim qalam,
Qalbmida ming orzu har tong tug'ilar,
Suyganim o'sha qiz tushda bo'lsa ham,
Bir dasta gul ila nozlanib kular.

Meni sira g'amgin demang, do'stu yor,
Boshida Sarbonim, hur Vatanim bor.
Yonimda Siz kabi do'stlarim bisyor,
Yuksak davralarda topdim e'tibor.

Bahoriy bog'lari dunyoga mashhur,
Baxtlar vodiysida tug'ilgan bo'lsam,
Va yurt sog'inchini bilmasdan, shukur,
Har lahza elimning kamolin ko'rsam,

Bu mening baxtimdir, biling, do'stlarim...



SEN XALQDIRSAN

Qo'y kabi bo'g'izlab so'yildi odam,
Otdilar erk sari qo'yilsa qadam,
Haqorat so'zlari tinmadi bir dam,
Bu kundan atigi yuz yil muqaddam,
O'chirib bo'larmi buni ko'ngildan?

Ko'zlaring o'ngida onangni otdi,
Qamchi izi otang yuziga botdi,
Duogo'y singlingni qo'lma-qo'l sotdi,
Bu kundan atigi yuz yil muqaddam,
O'chirib bo'larmi buni ko'ngildan?

Tug'ilmay ko'z yumdi necha avloding,
Sabolarga indi ohu faryoding,
Ag'yor barbod etdi bog'i bunyoding,
Bu kundan atigi yuz yil muqaddam,
O'chirib bo'larmi buni ko'ngildan?

O, xalqim, bu kunlar bo'lmasin unut,
Erku istiqloling endi mahkam tut,
Olg'a boshlar Sarbon misoli burgut,
Bo'l unga hamisha hamkoru hamdam,
Zero, Sen xalqdirsani, kammas hech kimdan.



OTA MEHRI

*Ayting, buncha bulutlar oppoq,
Buncha go'zal bu ma'yus yaproq,
Deyaversam, Otam aytdiki:
Aziz bo'lar tug'ilgan tuproq.*



OTAMNING IQRORI

Nedur sening murg'ak qalbing tig'lagan,
Bolajon, ayt, nechun ko'zlaringda yosh?
Ayt, bolam, nedur u seni qiynagan,
Majnuntol misoli nega egding bosh?

Haqiqat...

Bu dardni har kim tushunmas,
Charchadim men uni tushimda ko'ra.
Haqiqat! Sen uni Tangridan emas,
Har tola sochimning oqidan so'ra.

Kurashib yashadim, izlab haqiqat,
Va topdim men uni ming yillar kutib.
Haqiqat biz bilan hamma vaqt, faqat –
Uni asrash kerak o'zni unutib...



O'KINCH

Otajon,
Nechun sochlaringiz qor kabi oppoq?
Axir bundan rosa o'n yil muqaddam
Qop-qora edi-ku sizning sochingiz.

Hozirgidek bari yodimda:
Birinchi va so'nggi bor "til"dan
"Ikki" baho olgan kunimda
Ko'rgan edim bir tola oq soch.

Bugun esa...
Nahotki, otajon, o'n yil ichida
Shuncha "ikki" olgan bo'lsam hayotda?!



TOL

Tol... bamisli ilohiy daraxt,
Tug'ilgan go'dakka bo'ladi beshik,
dunyodan ko'z yumsang yasashar tobut,
tiriklikda qo'ling qavartgan
ketmoningga bo'ladi dasta.
Qarigan chog'ingda
qaddingga mador,
yana senga hamkor, hamsafar...

Tol, dam olmoq-chun soyangda yotib,
Ana shularni o'yladim bugun.



KETMON

Shunchalar vafodor bo'larmi ketmon,
Ochig'i, bunga ishonish qiyin!
Axir, mana shu ketmon,
Otasidan meros qolgandi unga.
Bolalik, yigitlik,
Hatto qarilikni o'tkazdi birga.
U o'ldi. Ketmoni esa
qabrini ham qazidi uning.
Ana! Merosxo'r o'g'ilning yonida,
yig'lamoqda ketmon ham
qabr boshida...



AJDODLAR MEROSI

Sahro... Garmsel shamol,
Issiqdan jimirlaydi qum.
Jilsam, oyog'im kuyar
shu qurigan daraxt yonidan.

U – soyasida bobolarim tin olgan
ming yillik azim chinor,
Hozir meni asrayotgan soya –
Ajdodlarim merosi – Vatan!



BOLALIGIM

O'tdi qancha oylar va yillar,
O'tdi mening teng yarim umrim.
Ortda esa chinqirib qoldi
Bolaligim – go'zal bahorim.

Ortda qoldi yoshligim mening,
Ertak kabi baxtli kunlarim,
Yulduzlarga orzular bitib,
Bedor o'tgan oydin tunlarim.

Qoldi endi xotira bo'lib,
Gulg'unchalar tergan gul chog'im.
Gulim bir qiz qo'lida so'lib,
Qoldi mening gulzorim – bog'im.

Ostonada meni kuzatgan
Mungli ko'zlar – bir mehr qoldi.
O'sha qirda – meni uzatgan –
Bolalikdan bir qabr qoldi.



FALAKNING GARDISHI

Falakning gardishi yag'ir kiftimga,
Og'riqli, o'kinchli tig' bo'lib botmish.
Kalavam sig'mayin mo'jaz kaftimga,
Oymomo yog'dusi tong bo'lib otmish.

Namsiz kipriklarim tortqilab bog'lar
Iztirob, armonning qaroqchilari.
Zil-zambil boshimni kundaga chog'lar
Sochim tarab gunoh taroqchalari.

Umr daftarinimning bo'sh varaqlari
Oqqushdek chayqalib uchdilar bir-bir.
Ey voh, chaqin urgan daraxt singari
Besamar etdimi umrimni taqdir?!

Yo'q-yo'q, zinhor qismat quli emasman,
Ne desa hukmini jo-bajo etgan.
Mevasiz daraxtdek xazon bo'lmasman,
Hayot chashmasiga ildizim yetgan...



VOLIDAMGA EHTIROM

*“Sochganlarim gavharmas, bolam,
Muhabbatning urug‘i”, dedi.
Umidlardan yashnadi olam,
Go‘yo jannat poyimda edi...*



YUZDAGI YOZUVLAR

Insonning hayoti juda murakkab,
Quvonchlar, tashvishlar yuzda mujassam.
Onam chehrasiga tushgan chiziqlar
Bundan darak berar zimdan qarasam.

Lek o'qiy olmasman bu yozuvlarni,
So'zboshi daladir, yo balki paxta.
Ehtimol, mehnat deb yozilganmikan
Yurgan yo'llaridan qolgan xarita.

Ehtimol tabiat nisor aylagan
Jannatiy ayolga ehtiromdir bul.
Chunki shu yozuvga tikilganimda,
Volidamga mehrim ortadi nuqul.



SOG'INCH

Bola edim... dilda o't qaynab,
Quyosh bilan o'ynardim, Ona.
Kechalari yulduzlar sanab,
Orzularim kuylardim yona.

Uyg'otardi sho'x shabbodalar,
Tog' lolasi sollansa dilxush,
Kuy chalardim har kun tong sahar,
Qalbim siri edi har tovush.

Majnuntollar misoli hur qiz,
Nozlangancha sochin tarardi.
O'sma qo'ygan suluvdek yalpiz,
Soy bo'yida meni kutardi.

Bola edim, uning dunyosi
Xayollardek edi nurafshon.
Dilda poklik mehriyosi
Barq urardi har lahza, har on.

Bugun esa olis bolalik,
Olisdadir bamisli osmon.
Ne baxt o'shal sho'x shalolalik
Gohi dilga bo'ladi mehmon...

Ba'zan dilda yana o't qaynab,
Bolaligim o'ylayman, Ona,
Biroq endi yulduzlar sanab,
Yig'lagayman yolg'iz, pinhona...

XASTALIK

Alanga ichida yonar vujudim,
Yuragim siqmoqda botiniy og'riq.
Nahot, o'lsam, axir ko'pdir umidim,
Ko'zinga qorayib ko'rinar borliq.

“Ahvoli murakkab, shoshilmoq darkor,
Tashhis aniq bo'lar kasalxonada”.
Darddoshim – yorimni qistab shifokor,
O'z farazi-la qilardi zada.

Ortidan sarg'aygan yaproqlar ekib,
Mashina shamoldek yelib ketardi.
Ota uyim, qishloqda yo'lga ko'z tikib,
Munis onajonim intiq kutardi...

Shu lahza o'rnimdan turdimu ilkis,
Hayqirdim qoldirib shifokorni lol.
Axir yuragimda toshib ketgan his
Izn bermagaydir yotsam bermalol:

“Mashinani tezda to'xtating, doktor,
Men kasal emasman – faqat ichikdim.
Farzandlar oldida bo'lmay, deb “qarzdor”,
Onamni ko'rmoqdan ancha kechikdim”.



TUSH

Hali manzil uzoq,
Hamma uxlagan.
Ohista tebranib bormoqda poyezd.
Tushida alahsib hamkupe yigit,
“Oyi, oyijonim” der edi tez-tez...

Bilmam, qaysi manzil yoki qay bekat,
Poyezd qichqirgancha to‘xtadi birdan.
Uxlab kelayotgan haligi yigit,
Sakrab turib ketdi yotgan joyidan.

Ma’yus nigohida yaltirab shabnam,
– Tush ko‘ribman, aka, – dedi daf’atan.
Tushimda belanchak... Rahmatli onam,
“Alla bolam” deya tebratar ekan.



MANTIQ

Nol – yo‘qlik degani ilmi hisobda,
Shuning uchun hech kim o‘rganmas uni,
Lek u eng katta son mantiq kitobda,
Go‘yo butun borliqda jandir mazmuni.
Vaholanki, birning ortiga
mingta nol qo‘yilsa necha bo‘ladi?
Qancha bo‘lsa bo‘lar,
lek mening onamdan
qarzimchalik katta bo‘lmaydi.



TAZOD

Uchrashuvda, Onajon,
Sizga atab she'rlar o'qiyman.
Ash'orlarda maqtayman Sizni,
Biroq tokchadagi
 chang bosgan
 menga mudom
 mehr-la boqqan
suratingizni
Artishga hech vaqt topolmayman...



TASHBEH

Xushbo'y hidlar
mening
xotiralarim uyg'otar.

Yomg'ir yog'ib,
tuproq hidi taralsa agar,
dehqon otam yodimga tushar.
Tandirda qizarib turgan
Non isi dimog'im qitiqlaganda,
Onajonim ko'z oldimda bo'lar namoyon.
Nogoh bulbul navo aylasa,
Xushbo'y atirgullar bo'yi taralsa,
Xayolimga kelar
mahzun bayt, g'azal
hamda unga sabab bevafo go'zal...



ISTIORA

Keldim kecha Onam qoshiga,
Men bulutning qo'lidan tutib.
Dedim, Ona, qiling fotiha,
Orzu degan nevara kutib.

Ko'kdan Onam yulduzlar terib,
Munchoq osdi uning ko'ksiga.
U turardi qomatin kerib,
Qolganini sochdi ustiga.

“Sochganlarim gavharmas, bolam,
Muhabbatning urug'i”, dedi.
Umidlardan yashnadi olam,
Go'yo jannat poyimda edi...

Quyosh bo'ldi to'ng'ich o'g'limiz,
Hilol bo'ldi kenja qizimiz.
Samo – beshik, shamol – ovunchoq,
Dunyo bo'ldi bizning sevgimiz.



ONAMNING SUVRATI

Titroq qo'llarining mo'jaz kaftida,
Taram-taram qaqrab yotadi shudgor.
Rangini yo'qotgan ro'mol ostida,
Kumushdek tovlanar bir tutam oq qor.

Kirtaygan ko'zlari – qurigan buloq,
Quyosh ham uyalar qaragan kezi.
Intilgan orzusi yulduzdan yiroq,
Yuzida chiziqlar – temir yo'l izi.

Har kuni iz solar tashvish ishchisi,
Kesishib-kesishib ketgan bu izlar.
Bekatsiz izlardan shoshib o'tadi,
Vagon-vagon armon ortgan poyezdlar.


* * *

Tatidim, neki rizq – borliq in'omi,
Xudoga shukrki, yo'qdir yomoni.
Lek bari-baridan ustun va totli,
Mening onam yopgan Samarqand noni.



MAJNUN YO'LI

*Men o'lsam qabrimga qabr tosh qo'ymang,
Boshim uzra eking bir tup majnuntol.
Kun kelib bo'y cho'zsa, isyonga yo'ymang,
Tagida bir juft qalb aylasa visol.*



OSHIQLIK

Sizdan maktub oldim, aziz Onajon,
Muhabbat bog'ida gul tergan chog'im.
"Suyganing bor ekan eshitdim shu tong, –
debsiz: – Men aytgan u qiz-chi, toychog'im?"

"Nechun kelmay qo'yding?" – yozibsiz yana,
Qaytmog'im xohlabsiz Ishqning saylidan.
Gar qalbim bilsangiz, oh, aziz Ona,
Siz uchun kechurman mingta Laylidan...


Keling, fotihaga, oyi, qo'l tuting,
Ishq yurti ahliga bo'ldim men maftun.
Olma pishgunicha ozgina kuting,
Bizning ham hovlida to'y bo'lar bir kun.



YURAK

Har qanday zotni ham o'ldirar emish,
Infarktga chalinib qolsa gar yurak.
"Umidim ko'p edi, charchadi", dermish,
Yuragidan nolib ba'zilar andak.

Lozim bo'lsa agar yurakka izhor,
Men unga tashakkur aytardim ming bor.
Axir, men-la sevdi, quvondi, kutdi,
Va hijron o'tida yondi necha bor.
Topilmas uningdek do'stu vafodor...



YO'LLAR

O, yo'llar, yo'llar-ey, aytingiz menga,
Qaylarda yuribdi mening nigorim?
Sog'inchlar yaraga aylandi tanda,
Qaydadir, aytingiz qora ko'z yorim?!

Qaydadir, aytingiz, o'shanda mensiz,
Olislarga aldab kuzatgan yo'llar...
Suyunchi beraman agar aytsangiz,
Manzilga ilonday uzangan yo'llar.

Hijronday uzunga cho'zilgan yo'llar,
Aytingiz, qaydadir qora ko'z yorim...



MAJNUN YO'LI

Oftoboyim dedim nurli jismingni,
O'tash yoqding hur ko'ksimning so'liga.
Bahor kabi ko'z-ko'z etib husningni,
Yetaklading oshiq Majnun yo'liga.

Nigohimga yonib turgan o't solding,
Shoh etgudek muhabbatning taxtiga.
Yuragimdan bir umrga joy olding,
Lek yetmadim sevilmoqning baxtiga.

Tuhfa etib alam ila ko'z yoshni,
Ketding so'ngra olis tunlar qo'yniga.
Ortda qoldim qalbga joylab bardoshni,
O'ynaguncha shum taqdirning o'yiniga.



ESKI RIVOYAT

Evi bilan bo'lsin ekan orzu ham,
Yo'qsa, bir kun qalbni qiynaydi armon.
Tillo ostonaga bilib bos qadam,
Yiqilsang befoyda so'nggi pushaymon...

Muhabbat istadim men ham notavon,
Izhori dil uchun yursam-da cho'chib.
Oshiqlar haqida o'qib ko'p doston,
Majnundek to'lg'ondim yostig'im quchib.

Ha, men ham oshiqman:
"Qani u raqib,
Uyalmay men sevgan qizga gul tutgan?
Ko'ksiga jiydaning gulidan taqib,
Men aytgan soylikda ul yorni kutgan?!"

Tamom.

Bugun raqib, ahvolingga voy,
O'lasan!.." Qo'limda bobom hassasi...
Tutvoldim raqibim... mana o'sha soy...
Qiz uni tanladi, menga tarsaki...

Suymagan ko'ngilga suykalmog' bekor,
Shul ekan, qadimdan qolgan haqiqat.
Men esa qalbimga berib ming ozor,
Yuribman taqdirdan qilib shikoyat.

BAHOR KELDI

“Bahor keldi!..” – xabar qilar boychechak,
Ajib to‘yxonaga aylanar dunyo.
Hovlidagi bir tup o‘rik – kelinchak,
Oppoq libos kiyib nozlanar go‘yo.

“Bahor!..” – novdalarda ko‘z ochar kurtak,
Chinqirig‘i uning – momoqaldiraq.
Yulduzlarga balki so‘zlaydi ertak
Qismatdoshim mening – lolaqizg‘aldoq.

“Bahor kelayotir!..” – adirlarda ham
Maysalar unadi, yo‘qolar izim.
Yurak sirlarimdan ogoh tor xonam,
Faqat bir suratga termular ko‘zim.

“Bahor kelyapti!..” – chug‘urlashadi
Tepamda aylanib bir juft qaldirg‘och.
So‘nggi sirimni ham o‘g‘irlashadi,
Bag‘riga ilk sirim o‘ygan qayrag‘och...

“Bahor kelayotir!..” – ko‘chadan bir to‘p
To‘pori bolalar o‘tdi yugurib.
Ko‘ksimda nimadir uzildi shu top,
Suratidan yuzim oldim o‘girib.

“Bahor kelayapti!..” Koshki qarasa...
Qo‘lida adashim – qorako‘z o‘g‘li.
Yonida qaddini g‘oz tutgan esa,
Sobiq xat tashuvchi o‘rtog‘im – o‘g‘ri...

QAFASDAGI DUNYO

Qafasdagi qushga achinar ukam,
Poklik timsoli u, mehridir daryo.
Axir shu yoshida bilsin qaydan ham,
Qafasli ekanin aslida dunyo.

Mana, hatto yolg'iz yuragim mening,
Ko'krak qafasimda yig'lagaydir qon.
Bunga-da roziman,
nigohi yorning
Kiprik qafasida qolgani armon.

Oh, bularni qaydan bilsin yosh ukam...



TUG'YON

Tongda quyosh o'par kipriklarimni,
Yoqimli shabboda sochim silaydi.
Keltirib yonimga etiklarimni,
Itim ham yalinib qo'lim yalaydi –
Borgin deb...

Boshlarin tebratib yo'limda gullar,
Quvonchga ko'mishib, tilashar omad.
Gul vaslidan masrur oshiq bulbullar
Baxtdan qo'shiq aytar misli xushomad –
Yurgin deb...

Maysalar shivirlab ko'rsatar yo'lim,
Daryolar kuladi, olam sabohat.
Yalpizlar taratib shod etar ko'nglim
O, xushbo'y bir hidki, nomi Muhabbat –
Chopgin deb...

Intizor ko'zlardan sachraydi uchqun,
Yuragim kutadi gul hidli xabar.
Biroq sen qaydasan, kelmaysan nechun,
Tabiatni maftun aylagan dilbar –
Keling deb...

MUHABBATDAN VATAN QURAMAN

Zulmat emas bu ko'hnada dunyo,
Yolg'izlikni tan olmas bir zum.
Ko'kda quyosh sochmishdir ziyo,
Nurlariga yuvgayman yuzim.

Kechalari esar shabboda,
Ko'k ummonda qayiqsimon oy.
Kavokiblar chaqnar fazoda,
Musaffo tog' ochmishdir chiroy.

Juda baland ul moviy tog'lar,
Xuddi mening orzuim kabi.
Qanday go'zal bu yoshlik chog'lar,
Ravo bo'lsa dilning matlabi.

Yaltiragan oppoq qor kechib,
Ketar bo'ldim huv o'sha toqqa.
Orzularning sharobin ichib,
Quvvat oldim qo'lu oyoqqa.

Baxtiyorman – men baxtga yorman,
Hur yoshlikning zavqin suraman.
Ishq yo'lida mangu bedorman,
Muhabbatdan Vatan quraman.


ILK SHE'R

Bu tun tush ko'ribman, tushimda, ajab,
U bilan gulzorda yurgan emishman.
Anbar sochlarini ohista silab,
Alvon atirgullar tergan emishman.

Jo'shqin soy bo'yida jo'shib, entikib,
Roz etar emishman ishqimni she'rda.
U dermish o'zini orzuga ko'mib,
Nahotki shu tole bizning taqdirda.

Visol og'ushida vaslidan sarxush,
Boshidan sochibman turfa xil gullar.
Qamrabdi qalbimni ajib bir tuyg'u,
Sevgimiz kuylabdi hatto bulbullar...

Bu tong g'unchalardan yasab guldasta,
O'sha oyjamolning kelishin kutdim.
Va tushda gul tutgan qo'llarim ila
Sevgiga atalgan ilk she'rim tutdim.



ISHQ O'TI

Oshiq etsin ekan har zotni Alloh,
Qovurg'alar sinsin yurak zarbidan.
Yuz yil farog'atda yashamoq gunoh,
Bir zum bo'lsa qiynal hijron dardidan.

Nadir ko'zyosh va g'am, zavq va shavqni ham
Bilar faqat oshiq bo'lgan bandalar.
Gar bo'lsa dunyoda sevgisiz odam,
U ham qabrlarda yotgan murdalar.

Tangrim yor vasliga yetkazsa nogoh
Abasdir men uchun jannatga havas.
Yorim yashar uyni etgum sajdagoh,
Men endi Majnunman, Olimjon emas.

Ishq o'ti jahannam o'tidan og'ir,
Boshimdan kechirdim faryod etmayin.
Har ne ishga yolg'iz Allohim qodir,
Balki endi menga jannat ham tayin.



SO'NGGI SO'Z

Men bola ekanman... folbin bir ayol,
Subhidam chog'ida uyga kelibdi.
Onamga: "O'g'lingni tuqqanmi xayol,
Tilsiz qolib bir kun o'ladi", debdi.

Lek ayta olmabdi u folbin xola,
Ne bo'lishin mening eng so'nggi so'zim.
Aytmabdi ko'rsa-da, onam ming chora,
Bilarmishman go'yo uni men o'zim...

Ha, o'shanda folbin ayol aytgandek,
Tilsiz qolib bir kun o'laman, albat.
Lek aniq bilaman, iymonim beshak,
So'nggi so'zim mening bo'lar MUHABBAT.



GULIM

Gulim, gulim,
Samolarga yetdi-yu, ammo
Yolg'iz senga yetmadi qo'lim.

Gulim, gulim,
Yakdilmiz deb o'ylagandim-o,
Afsus ayri tushdi-ku yo'lim.

“Yugurganmas, buyurganniki,
Omin”, dedi otang – dalli chol.
“Singlisini oling, sizniki”,
Deya aldar onang ham behol.

“Asli bir kam yaralgan dunyo,
Baxtli bo'ling”, – deding parishon...
O'g'ling Majnun bo'lsin, iloyo,
Neligini anglagin hijron...

Gulim, gulim,
Samolarga yetdi-yu, ammo
Yolg'iz senga yetmadi qo'lim...



MUXLISA

Qalbimga bir dardni soldi, xudoyim,
Zabonim sayratar bir soʻz – MUXLISA.
Shundan beri topmay yer-koʻkda joyim,
Ismingizga ilk sheʼr bitdim, alqissa.

Muxlis, koʻzlaringiz juda ham goʻzal,
Shamsiqamar oshiq moviy bir dengiz.
Shu dengizga choʻkib oʻlganim afzal,
Men – Majnunga ne shart yashamoq Sizsiz.

Hasrat chamanidan guldasta terib,
Tungi xayollardan ilk boʻsa oldim.
Muxlis, koʻzingizga termulaverib,
Oʻzim ham muxlisga aylanib qoldim.



Yigirma yil kutdim tunlari bedor,
Tangrim vasling oxir ayladi ato.
Ne baxt, yonimdasan, quvonchdan, dildor,
Ismimni unutib qo'yganman, hatto.

Bugun xirom etur dunyo men uchun,
Boshimdan nur sochur ishqning oftobi.
Bilaman, qachondir o'ldirar bir kun,
Shu qaynoq bo'saning qiynoq azobi...



O'SHA MEN BO'LAMAN

Seni deb yashasa bir baxti qaro,
Yo'lingda Majnundek kutsa kunaro,
Poyingda bosh ursa har tong, nigoro,
Unutma, o'sha Men bo'laman, dildor...

Soyadek ergashib, guldasta tutsa,
Kelmasang junjib tonggacha kutsa,
Hajringda oh ursa, yig'lab, qon yutsa,
Unutma, o'sha Men bo'laman, dildor...

Xiyonat xabari unga ham yetsa,
Ona qishlog'idan bosh olib ketsa,
Armon-la dunyoni abad tark etsa,
Unutma, o'sha Men bo'laman, dildor...



ISHQ MADHIYASI

Kulbam uzra qamar nur sochdi yana,
Baxtning hidlariga to'ldi jahonim.
Armon bu kun menga butkul begona,
Endi Sen meniki,
meniki,
jonim.

Toshlarda ko'z ochgan maysalar – umid,
Muhabbat yurtida suzmoqda qonim.
Bir kam bu dunyoda barchasi mavjud,
Endi Sen meniki,
meniki,
jonim.

Go'dak ingasidek rostdir har so'zim,
Asrlarga tatir bu baxtli onim.
Quvonch yoshlariga ochundir ko'zim,
Endi Sen meniki,
meniki,
jonim.

Bulbullar xonishi – ishq madhiyasi,
Humo qush ko'zlari – Vatanim, shonim.
Libosing – oppoq tong – Tangri hadyasi,
Endi Sen bir umr
meniki,
jonim.

SUMBUL SOCHLI MALAGIM

Oyning tanho singlisi,
Atirgulning kulgisi,
Kelar meni bilgisi,
Sumbul sochli malagim –
Asir etay yuraging!

Baxt in qurgan ko'ziga,
Bulbul shaydo so'ziga,
Oftob oshiq yuziga,
Xipcha belli malagim –
Nechun yo'qdir daraging?

Kulganda gul ochilgan,
Yig'lasa dur sochilgan,
Boqsa jondan kechilgan,
Hilol qoshli malagim –
Sen o'zingsan keragim.



JODUGAR

Telefon jiringlar... yana o'sha qiz,
Ma'yus bir ohangda shivirlar sekin.
"Men Sizni sevaman, keta olmassiz,
Jodugar deb meni o'ylamang, lekin..."


Kuladi...

Men jimman...

Qo'yar dastakni,
Aloqa uzilar, dukillar yurak.
Qay holda tushunay bunday istakni,
"Jodugar"ga mendan o'zi ne kerak?

Qiynalma, ey yurak, dardlaring qursin,
Bu axir g'o'r qizning hazil so'zlari.
Muhabbat neligin qaydan ham bilsin
Hissiz telefonning sovuq simlari.

Tinch qo'y endi, yurak, gullar aldagan,
Armonlar mozori – kuyuk bag'rni.
O'shanda oqqushlar ko'zyosh-la ko'mgan,
Sevgidan ko'ksimda qolgan qabrni...



AYRILIQ

Oh, bu kun bo'g'zimga qadaldi armon,
Ko'ksim yerga berib sassiz yig'ladim.
Yorim kelin bo'ldi...

ketmoqda karvon —
Ayriliq o'tida bag'rim tig'ladim.

Judolik alamim – qaro kunlarim,
Qoldi hassasiga suyanib otam.
Gapirmadi bu kun sho'x ukalarim,
Pana-panalarda yig'ladi onam.

Mungli ko'zlar bu kun qayga termular,
Shoxi sinib ho'kiz qaytdi podadan.
Aza aytib ko'kda uchdi turnalar,
Itim yaralanib keldi to'dadan.

Oh, meni qay kunga solding, ey taqdir,
Tokchada kitobdan uchdi varaqlar,
Sarg'ayganча chirt-chirt uzildi bir-bir,
Ishqiy maktublarim bitgan yaproqlar.

Oh, bu kun bo'g'zimga qadaldi armon...



IQROR

Seni topganimcha
ko'p zamon o'tdi,
Bahor, yoz, kuz va qish –
to'rt zamon.
Qor ostidan gullar topib keltirdim –
olmading.
Yuragimni tilkalab,
uzuk deb berdim,
qolmading...
Seni unutguncha ko'p zamon o'tar:
Sog'inch, dard, xijron va o'lim –
to'rt zamon.



BESHINCHI FASL

Qo'shni hovlidagi o'rik gullagan,
Qushlar navo etar bahoriy yalla.
Chuqurlarda yomg'ir suvi ko'llagan,
Jo'ram kelinchagi aytardi alla...

Bizning hovlimizda xazonrezgi payt,
Qushlar tark etishgan beshinchi fasl.
Qog'ozda ingranar uch-to'rtgina bayt,
Tushlarimda hadya etarsan vasl.

Xonamda yolg'izman.

Xayolimdasan,
Tamaki tortaman, qaddim bukilgan.
Yuz, yo'q, ming yil bo'ldi, kutayotirman,
Soqov telefonga ko'zim tikilgan...



SAVOL

Men o'zimni yupatdim oxir,
Seni olib bermadi otam.
Sen – Zuhrosan, Men – ojiz Tohir,
Bizga hech zot bo'lmadi Hotam.

Men o'zimni aldadim yana,
Sen begunoh, gunohkor Onam.
Faqat bitta aytgulik ta'na,
Tegib ketding indamay Sen ham.

Bolalikdan ulg'aydik birga,
Fasli yoshlik ajraldik nogoh.
Men shaharga... sen tegding erga...
Yuragimni xasta etdi oh...

Eslaysanmi, bog'cha xolamiz,
O'tkazgandi bayram o'shanda.
"Kelin-kuyov" bo'ldik ikkimiz,
Oq choyshabdan tutib go'shanga...

Bola edik... Talashib yulduz
Mening boshim yorganding bir bor.
O'tdi yillar, tanamda hanuz
O'sha yulduz – muhring izi bor.

Men o'shaman.
Nahot unutding,
Esla, Onam – bog'cha xolani.
Va ayt kimga qoldirib ketding,
Muhring bosib qo'ygan bolani...

ILHOM PARISIGA

I

Kirarding xonamga tunlar beso'roq,
Labingda yonardi o'tli tabassum.
Qog'ozga ko'milgan tanam ko'riboq,
Benasib baxtlardan so'zlarding bir zum.

"Sen hali bearmon shoir bo'lasan,
She'rlaring o'qiydi faqat bulbullar,
Vataning taftidan nurga to'lasan,
Salomlar beradi egilib gullar.

Jannatga aylanar shunda Ona yer,
Odamlar quyoshdan mehr sog'adi.
Yozasan kapalak qanotiga she'r,
Osmondan qor emas, baxtlar yog'adi.

Yumushing bajarar naylardagi kuy,
Yuzlaring chayadi tonggi shabada.
Xayollar sen uchun bo'lar misli uy,
Sovg'alar beraman gullar qatida.

Kamalak rangidan siyoh keltirib,
Satingga quchoqlab gullar teraman.
She'rlaring bitguncha qoshingda turib,
Nurlardan ko'ylaklar tikib beraman.

Faqat Sen meni kut, kutgil bir umr,
Qayg'ungni ko'mib men, albat, kelaman.
O'sha tong otguncha qilolsang sabr,
Navoiydek o'g'il tug'ib beraman".

II

Nozik barmoqlaring sochimni silab,
O'ziga rom etdi oshiq qalbimni.
O'shanda bir bo'sa – olgandim tilab,
Hamon kuydiradi muzdek labimni.

Meni kut, men albat qaytaman, deya
Xonamdan ohista ketganding chiqib.
Men kutib yashayman har bir soniya,
Lek nechun bunchalar ketding kechikib?!



KECHIKKAN MUHABBAT

Kelur bo'lsang yonimga agar
Muhabbatdan so'zlama faqat.
Hayotimni qildi u zahar,
Yuragimni muzlatib qat-qat.

Yorilgandi o'sha chog' yurak,
Najot istab sendan muhabbat.
Ammo ketding besas, bedarak,
Zor qalbinga qilmading shafqat.

Olov ichra yonganda yurak,
Gul ochilib, kelgandi bahor.
Sevgimni sen etganingda tark,
Xazon uzra uchqunladi qor.

Yurak muzlab bo'lganda ado,
Qaytib kelding yonimga nega?
Qalbim endi berurmi sado,
Termularsan bunchalar menga?

Chorlamagin, qilmagin imo,
Toshga do'ndi ko'ksimda yurak.
Xotiramda qolarsan, ammo
Kech bo'ldi-ku endi kechirmak.



SEVGI GADOSI

Atirgul iforin hidlab to'yguncha,
Munavvar hayotni sezmasdi ko'zim.
Mayi nob simirib xumor bo'lguncha,
Mastlik neligini bilmasdim bir zum.

Bu tong yonog'ingdan olib bir bo'sa,
O'zligim unutdim, bu qandayin sir.
Sochingni dor kabi solib bo'ynimga,
Muhabbat qasrida aylading asir.

Endi sir oshkordir: yurakda hokim
Tuyg'ularim bari – vasling fidosi.
Angladim – vujudda qalb gumroh, tokim
Bo'la olmasa gar sevgi gadosi...



BIR QADAM

Ochilardi eshik daf'atan,
Yurak qo'shiq boshlardi shu dam.
Dil yonardi nogoh bu baxtdan
Ostonamga qo'ysang Sen qadam.

Olamga nur baxsh etgan tashrif,
O'ksik ko'nglim baxtga belardi.
Ko'rganlarning mendayin g'arib
Toleiga havas qilardi.

Sog'inchlaring aytarding bir-bir,
O'rtanardi yuragim nochor.
Azoblarim sendan tutib sir,
Etolmasdim sevgimni izhor.

Ketar bo'lsang so'nardi ziyo,
"Xayr" derding, kiprigingda nam.
Ko'zlarimga tor edi dunyo,
Sog'intirib qo'ysang gar qadam...

Bu kun, jonim, chekaman faryod,
Ishqimizga hamroh bo'ldi g'am.
Qalbimizni qiynar umrbod
Sen adashib bosgan bir qadam...



BAHOR XAZONLARI

Biz kezgan bog'larda xazon to'shalgan,
Endi bunda hokim qushlar galasi.
Olmalarning hidin o'g'irlab ketgan,
Qachondir, sezdirmay tun shabadasi.

Sajdaga cho'zilgan qo'llar singari
Xayolchan tebranar yalang'och shoxlar.
Qo'shilib yig'laydi bosganim sari,
Xazonmas – orzudan tul qolgan ohlar.

Yelkamda zil-zambil xayollar tog'i,
“Bularning bariga o'zim gunohkor”.
Oh, bu ne ko'rgilik. Shu kuzak chog'i
Yo'laklarda besas yig'laydi bahor.

Xazonzorga o'xshar dunyo, chamamda,
Men endi yolg'izman, topganim faqat –
Qachondir kesilgan bir to'nka hamda
Yetimlikda yig'lab yurgan muhabbat.



QAYTMAS KUNLAR

Begonam, termulmang, zinhor Siz ortga,
Men endi ketarman – tin olsun yurak.
Axir muhabbati so'ngan yigitga,
Ayting, bu dunyoda yashash ne kerak?!

Bevafom, ne qilay, unutgum Sizni,
Visolga yetibdur qay Majnun, qachon?
Taqdir yo Tangrimas ayirgan bizni,
Ko'ksinga iz bosdi Siz ketgan karvon.

Iloham, qayg'urmang, endi men uchun,
Men ishqning ko'z yoshin ichib o'laman.
Qabrimga gul qo'ygan avlodga bir kun
She'rlari yo'qolgan shoir bo'laman.

Oqqushlar o'g'irlab ketar armonni,
Tonglar hadya etar ming orzu-xayol.
O'shanda Siz va'da qilgan o'g'lonni,
Menga in'om etar bir baxtli ayol.

Hammasi iziga tushadi takror,
Xazonlar hech qachon qo'shiq aytmaydi.
Qaytadi baxtlarim, qaytadi bahor,
Faqat Siz-la kechgan kunlar qaytmaydi.




QAYDASAN

Ohlarni sipqordim osmonni quchib,
Quvondim anduhlar daryosin kechib,
Kuyladim bulbulning ko'z yoshin ichib,
Qaydasan, qiynama xasta yuragim,
Xotiraga ona bo'lgan malagim.

Osmondek bag'rimni chaqmoqdek tilding,
Ko'zyoshim samoga yulduzdek ilding,
Ruhimni devona shamollar qilding,
Kelmading, kibri ham samo, keragim,
Oyga singil bo'lgan tanho malagim.

Termulib ishqimning ko'zi tolmasi,
Bag'rim yonib-kuydi, kuli qolmasi,
Baxtim sadqa qilsam, hech zot olmasi,
Armonga yor bo'ldi ezgu tilagim,
Meni Odam etgan Havo malagim.



KO'Z YOSHLARIM

Sen meni tark etding —
Yig'ladim nochor,
Oqdi ko'zyoshlarim misoli daryo.
Bag'rimni otashda kuydirdim bekor,
Rangidan tunlarni kashf etdi dunyo.

Peshonam sho'r ekan, orzular essiz,
Bu kun men xastaman, nigohlarim ko'r.
Oqqan ko'zyoshlarim shu moviy dengiz,
Ishon, hatto ta'mi ko'zyoshimdek sho'r.



QAROKO'Z MALAK

Kelgin, ey tabibim, qaroko'z malak,
Jonimni olmasdan bu dardi hijron.
Bunchalar qiynading, sochi jamalak,
Qilmoqchi bo'ldingmi sevgim imtihon.

Magarki, qalbimni bilmoq istasang,
Bir umr maftuning – ko'zlarimga boq.
Unda hijron bilan qilar bahsu jang,
Sening ishqing ila munavvar qaroq.

Kelgin, ey tabibim, qaroko'z malak...



RASHK

Yana ko'klam keldi.

Suyunib jonim,
Gul-lolalar ichra meni unutding.
Rashkimni keltirib,

jonu jahonim,
Meningmas, gullarning qo'lidan tutding.

Sochingdan taralar bo'ylari baxtning,
Ko'zlaringga qamar ketmoqda cho'kib.
Bir bor qaramading, unutding ahding,
Meningmas, maysalar labidan o'pib.

Yoningda yolg'izman, dilimda bir o'y,
Quvonchlar Sen bilan, qaytadi bahor.
Lek Olimjon ketsa, dildor, bilib qo'y,
O'n sakkiz yoshingdek qaytmagay zinhor...



BAXT YILI

Yangi yil kelmoqda, barcha shod, xurram,
Gulgun chehralarda baxt ochun qurgan.
Baxt yili kelmoqda – eng oliy bayram,
Bu qutlug' kunlarni Tangri buyurgan.

Yangi yil kelmoqda, olam munavvar,
Qafasiga sig'may o'ynar yuraklar.
Sho'x kuyga jo'r bo'lib qadah jaranglar,
Qalblarni zabt etar ezgu tilaklar.

Shodlik ona bo'lgan zaminga bu kun,
Baxt go'yo beshigu, dil olar orom.
Oh, bular barchasi yotdir men uchun,
Aslo notinch qalbim eta olmas rom.

Vatanda Vatanni sog'ingan kabi,
Odamlar ichida yolg'izman shu dam.
Nigohim o'padi hijronning labi,
Men – ismin unutib qo'ygan bir odam...

Yangi yil kelmoqda, barcha shodumon,
Tashqari qarayman... darak yo'q qordan.
Baxt yili kelmoqda, negadir hamon,
Yurak o'rtanadi, xabar yo'q yordan...



ARMON

Yulduzday nogahon so'na boshladi,
Bolalikning bebosh orzusi bir-bir.
Shiddatim iliniga do'na boshladi,
Hamrohga aylandi yolg'izim – sabr.

Xira tortib ko'zlar, o'chdi xotira,
Tizzalar qaltirab, quridi mador.
Tark etdi tishlarim, qo'ndi boshimga,
Yerdan yog'ayotgan beayov oq qor.

Endi qismatdoshim, so'nggi do'st – yurak,
Ketmoqqa shoshmoqda... etayapman his.
Lek hamon tushimga kirib chiqadi
Suyganim, maktabdosh, o'sha suluv qiz...



HIJRON

Dunyo – to‘rt devorli mo‘jaz bir xona,
Yashamoq – kimgadir intiqlik, zorlik.
Orzu – tug‘ib tashlab ketguvchi Ona,
Hijron – yodga tushsa titrovchi borliq.

Yashayman xastadil, shular to‘rt mucham,
Xayolim o‘g‘irlar bir qizning rasmi.
Kunlar ko‘zyosh kabi to‘xtamas hecham,
Suratdagi endi birovning xasmi.

Tilimni tishlayman, so‘z demak malol,
Ko‘ksimda yaradek chimillar armon.
Biroq men devona bo‘lmadim, alhol,
Meni shoir qildi bag‘ri xun hijron.



UMID

Sovchilar keladi har kuni o'nlab,
Bir olam sovg'a-la yaqin-yiroqdan.
Birisi shahardan kelar "qiz tilab",
Boshqasi keladi qo'shni qishloqdan.

Ona darhol maqtab ketar qizini,
Ota esa mag'rur, o'tirar to'rda.
(O'chirib bo'larmi sovchi izini,
Axir bu qizlari judayam zo'r-da).

Sovchilar sovg'a deb kelin libosin,
Ming bir mullolarga o'qitib kelar.
Ota baland qo'ysa qalin bahosin,
Birlari yig'lasa, birlari kular.

Kelinlik libosin kiyib ustiga,
Toshoyna yonida soatlab turar...
Bechora qariqiz o'ylab rostiga,
Har shomdan tonggacha shu tushni ko'rar.



OTELLO MONOLOGI

Nomardlik ayladi menga bu taqdir,
Umidlarim asir tushdi armonga.
Riyokor alamlar payt poylab oxir,
Muhabbatim arzon sotdi gumonga.

Qotil shubhalarim sevgimni tutib,
Ko'ksimga tig' ila aksin o'yishdi.
Yetim orzularim o'limdan qo'rqib,
Burro tillarini yutib qo'yishdi.

Dunyo ishonchimga yolg'onlar aytib,
Dardlarimning zafar to'yiga chorlar.
O'tgan hur kunlarim yodimga qaytib,
Bahorda boshimdan yog'dirar qorlar.



KUZAKLARDA YIG'LATGAN BAHOR

Men dunyoga yig'lab kelgandim,
Lekin zinhor yig'lab ketmasman.
Jonim, seni jondin sevgandim,
Hamon sevgim inkor etmasman.

Nechun bugun men yolg'iz qoldim,
Na do'st, na yot boqmaydi qiyo.
Dilkash izlab charchadim, toldim,
Nahot shuncha bag'ritosh dunvo.

Tunlar baxt deb ertaklar aytding,
Ismingni-da so'rmadim bir bor.
Tashlab meni, qaylarga ketding,
Kuzaklarda yig'latgan BAHOR!



* * *

Men o'lsam qabringa qabr tosh qo'ymang,
Boshim uzra eking bir tup majnuntol.
Kun kelib bo'y cho'zsa, isyonga yo'ymang,
Tagida bir juft qalb aylasa visol.

* * *

Muhabbat – bu yonayotgan sham,
Men – parvona, unga intilgan.
Sham taftidan erib bitmas g'am,
Men hijronda qayta tirilgan.



QADR

*Axir men – shoirman, oddiy kishimas,
Muhabbat gadosi, xayol odami.
Shundayyashab ketmoq mening ishimmas,
Men – erkka intilgan xalqning qadami.*



“SHOHNOMA”NI O‘QIB...

“U mehrdan yiroq.

U temir odam,

Qo‘llari ketmonmas, tutadi shamshir.

Ajdar ham qochadi tashlasa qadam,

Muhabbat ne qilsin sarbozda, axir.

Xudo yurak emas, ko‘ksiga uning

Temirdan yasalgan chayonni taqqan.

U gulni hidlamos, so‘ndir umiding,

Onasi odammas, zo‘r yo‘lbars tuqqan.

Sen gulsan, tikonmas, unutma zinhor,

Suxrob sen o‘ylagan yigitmas, ishon”.

Shu so‘zin takrorlab har kecha ming bor,

Go‘zal nozaninni avraydi shayton...

To‘g‘ri, Suxrob sarboz.

U temir odam.

Metin qo‘lda shamshir, o‘zi qo‘rqmas sher.

U Vatan ishonchi, faxridir har dam,

Yo‘q, sanam, uni sev!

O‘g‘il tug‘ib ber!!!

Shaytonning so'ziga inonma aslo,
Bo'htonlar to'qiydi shumqadam nuqul.
Suxrobda mehr, ko'zyosh, Vatan bor, hatto,
Temir dubulg'asida o'sgan chinni gul.

U bekor og'ritmas birov dilini,
Lek shaytonning bormi ko'zyosh, Vatani?
Hatto qaldirg'ochning tishlab tilini,
Bo'sa so'rgan kabi ichar qonini.

Shaytonning so'ziga inonma aslo,
Suxrobda mehr bor,
bor ishqqa vafo...



UCHINCHI YULDUZ

Yodimda,
kech kuz edi o'shanda:
Ikki tomoni daraxtzor bo'lgan
So'ngsiz yo'lakchadan borardik uchov,
Boshni quyi solib,
 noma'lum yoqqa,
Baxtimizni axtarib...
Nihoyat, kech tushgan mahal,
Chiqdik biz ajib kenglikka
va cho'zildik shovullagan daryo bo'yida.

Osmonda miltillab ko'rindi yulduz!
Sen tanlading birinchisini,
U esa ikkinchisini.
Hali chiqishga ulgurmagandi
 uchinchi yulduz...

Men barmog'imni tishladim qattiq,
Qayda qoldi mening yulduzim?



TUNGI XAYOL

Qo'limdagi chivinning qanotin yulib,
Stolning ustiga qo'yib yubordim.
Bechora uchishni unutgan bir zum,
Hatto yurishni ham eplay olmaydi.
Va shunda birdan titray boshladi tanim,
Go'yo mening ham qanotim yulib,
sirpanchiq loyda,
Kimdir tomosha qilib turganday bo'ldi...

U tungi oy edi.
Cho'chib ketdim oyda aksimni ko'rib...



DO'ST

Xiyonat... Og‘ir ekan mitti yurakka,
Faqat buni angladim bugun...
Do‘stim “telba” dedi,
 meni tark etdi.
Suyganim boshqasin yetaklab ketdi,
Ma’qul kelmaganmish matlabim, g‘oyam.

Faqat tark etmadi meni
Ortimdan ergashib, charchamas soyam.



HAYOT

Tugamasdir yig'i, tazyiqlar,
Gullamasdan so'nar xohishing.
Peshonangga tortib chiziqlar
Orzuingni ko'mar tashvishing.

Tundek qora sochlar o'rnida
Tovlanadi kumush tolalar.
Varrak o'ynar xayol qo'ynida
Tug'ilmasdan o'lgan bolalar.

So'roq yanglig' asoni tutib,
Yo'llarga ko'z tikasan behol.
O'g'irlatgan ilk sevging kutib,
Asrlarga bo'lasan savol...

Sen yoqtirgan navbahor chog'i
Janozangga chaqirar kimdir.
Eslab seni yig'lar tun bo'yi,
Ko'zi ojiz bir xasta kampir.

Tuproq yo'ldan ko'tarib o'tar,
Tobutingni mungli olomon.
Shu kech erka qizingni o'par,
Senga va'da qilingan o'g'lon.

APRELNING TO'QQIZI

Aprelning to'qqizi – tavallud sanam,
Kulbamda oshnolar to'planajak kun.
Shu kuni keladi men kutgan sanam,
Ismimni unutib qo'yaman bu tun.

Baxtim-chun ichilib sharobmas qasam,
Billur qadahlarga cho'zilar qo'llar.
(Va bir kun dunyodan gar ketar bo'lsam,
Qabrimga shu qo'llar qo'ymishdir gullar).

O'ylarim cheki yo'q, dunyo kabi keng...
Shu kuni bir lahza baxtinga yetgum.
Ammo shu qadahlar sadosida men,
Umr shomi tomon bir qadam ketgum.



HUR QIZ

Qish kechasi ...
Kutilmaganda,
Kirib keldi uyga sovchilar.
Barcha mamnun, birgina sening
Ko'zlaringdan tomda tomchilar.

Xasta otang shifo topganday,
O'ksik ko'ngling bir qarich o'sdi.
Yolg'iz qolib ketmoq istovding,
Erka iting yo'lingni to'sdi.

Taqdiringni hal etib sensiz,
Ichkarida baxtlilar kular.
Yuz yil tilab olingan baxtni
Quchib shu chog' yig'laging kelar.

Shu sadaqa baxtni topguncha,
Qancha ayoz, qancha yoz o'tdi.
Gullar bilan kelgan bahorlar
Armon bo'lib, kuz bilan ketdi.

Yig'layapsan to'lib-entikib,
Aza tutib shularga go'yo...
Lek bir tomchi ko'z yoshingga ham,
Arzimaydi bu yolg'on dunyo.

YAXSHI QADRLANMAS, YOMON BO'LMASA

Koinotning tanho qizidirsan, Oy,
Ta'rifingga so'z topmay tilim lol.
Bu oqshom naqadar ochibsan chiroy,
Dilrozim uchirsam kelmasmi malol.

Jisming tosh ersa-da, sening, ey hilol,
Sirli olam uzra tanhosan, poksan.
Xiyonat qilmaysan, yashaysan halol,
Shuning-chun zulmatda sutdayin oqsan.

Naql bor: "Har narsa olisdan ayon,
Yaxshi qadrlanmas, yomon bo'lmasa", –
Shoir qalbidagin qilarmi bayon,
Yuragi zardobga lim-lim to'lmasa...

Bugun poyim uzra uzalgan gullar
Kecha kibr ila menga boqardi.
Bugun xushomadga chog'langan tillar,
Kecha chayon bo'lib achchiq chaqardi...


Men Senga ketaman.

Oh, qalbim yara,
Charchadim, boshimga qo'nsin hur kunlar.
Sen tomon uchmoqqa talpinsam, qara,
Oyog'imni chirmab olibdi gullar.

MEHRDAN TUG'ILGAN NAVO

Shoirga sig'inma va qilma havas,
Bu cheksiz maqtoqlar, chapaklar nechun?
Unga bir dasta gul hadya etsang, bas,
Axir u she'r yozmas shon-shuhrat uchun.

Rost, uning hayotda bor tengsiz qadri,
Lek bu zot buyuklik etmas hech da'vo.
Negaki, shoirning har bitta satri
Qalbidan, mehridan tug'ilgan navo.




SURAT

Aka, mening suratim chizing,
Yashirinsin unda mungligim.
Lablarimga qo'nsin tabassum,
Baxt nuridan yorishsin ko'nglim.

Nigohlarim qadalsin ko'kka,
Bunda bo'lsin tuyg'ular ozod.
Mehrim yetsin har bir yurakka,
Unga boqqan bo'laversin shod.

Hatto qora soyalarni-da,
Oppoq rangda chizingiz, inim.
Toki, bersin dilga ezgulik
Qalbim ramzi ushbu suratim.



QADR

Qarshingizda turgan shoir, ya'ni man —
Bugun siz-la borman, ertaga gumon.
Shodlik va visoldan she'r uchun kechgan,
O'zimning ko'ksimga otilgan kamon...

Demak, mehmon kabi ko'rsating hurmat,
Aybim-chun koyishdan shoshmay turasiz.
Jon berar chog'imda qoldirgum surat,
So'ng uni to'yguncha so'kaverasiz.

Axir men – shoirman, oddiy kishimas,
Muhabbat gadosi, xayol odami.
Shunday yashab ketmoq mening ishimmas,
Men – erkka intilgan xalqning qadami.

Keling, Siz ham mendek yashang bir lahza,
Boladek beg'ubor bo'lingiz bir dam.
Bir qushcha o'lsa ham tutingiz aza,
Hech qursa bir kuncha bo'ling chin odam.

Janggohda askarga o'q tegmay o'tsa,
O'sha kun shomgacha qilingiz bayram.
"Inga"lab bir go'dak olamga kelsa,
Meni ham bir bora eslang o'shal dam.

Qarshingizda turgan shoir, ya'ni man —
Bugun siz-la borman, ertaga gumon...

CHARLINING QO'SHIG'I

Zavq yetmas hidlashga atirgullarni,
Toqat yo'q tinglashga sho'x bulbullarni,
Haqqim yo'q o'pmoqqa nozik qo'llarni,
Cho'ntagimda qolgan bor-yo'g'i bir so'm.

Urinmang, xonimlar, ko'nglim yormasman,
Nozli nigohlarga aslo zormasman,
Kinoga baribir siz-la bormasman,
Cho'ntagimda qolgan bor-yo'g'i bir so'm.

Sayohat qilmoqqa, afsus, vaqtim yo'q,
Restoran kirmasman – doim qornim to'q,
Ziyofatlar – ko'ksim teshib o'tgan o'q,
Cho'ntagimda qolgan bor-yo'g'i bir so'm.

Netay, uchrashuvlar menga yoqmaydi,
Bu yurtda gadoga qizlar boqmaydi,
Yig'lay desam ko'zdan yoshim oqmaydi,
Cho'ntagimda qolgan bor-yo'g'i bir so'm.

Oshkor aytsam agar yashashim xarob,
Menga atalgan bu hayot ham sarob.
Faqat suv aksida bo'laman janob,
Cho'ntagimda qolgan bor-yo'g'i bir so'm...

BECHORA

Qadahlar jarangi ajib bir sado,
Sho'x-xandon kulgilar uchadi har yon.
Davrada muqomlar bo'lmaydi ado,
Xushnudlik tuyg'usi chehradan ayon.

Bu yoqda, bir chetda o'tiribman jim,
Limmo-lim qadahdan ko'zimni uzmay,
Gunohkor misoli egilgan boshim,
Do'stlarim zavqiga pinagim buzmay.

Bilaman, qarshimda kimdir turibdi,
Qarashga imkon yo'q rang-barang nurdan.
Yo'q, bu bir bahona, asli qo'rqaman,
Ketib qolishidan
"do'stim"ning birdan...

Nihoyat, chidolmay ko'z tikdim unga,
Qarshimda o'tirgan...
o'z soyam ekan.
Qarang, kim achinib turibdi menga,
Oh, bu qismat qanday nomlanar ekan?



MEHR SO'RAB, MUHABBAT SO'RAB

Qish...

Izg'irin sovuq...

Tong endi otgan...

"Tuf" desang tupuging muzlashi tayin.

Lek bozor qizigan, odam minglagan,

Kim olar, kim sotar – izohlash qiyin.

Siz ham kelmoqdasiz...

(Dunyo – bu bozor)

Yo'l chetida titrab o'tirmish odam.

Sadaqa tilanib qo'llarin cho'zar...

To'xtang!

Ular ichra turibman men ham...

Do'mboq bir xonim-la kelayotibsiz,

Kingadir uzatib arzimasa chaqa.

G'amlar o'lkasidan o'tayotib, Siz

O'ylaysiz: aslida dunyo shunaqa!

Netay, taqdirimiz shunday yozilgan;

Yeb qo'ygudek menga boqdingiz, yo rab!

Kesmang...

qo'llarim...

oldga cho'zilgan,

Faqat mehr so'rab, muhabbat so'rab!

MUNDARIJA

Qutlug' sajdagoh

Vatan tuprog'i	90
Toshkent	91
Samarqand	92
Tong farzandi	94
Mening baxtim	95
Sen xalqdirsan	96

Ota mehri

Otamning iqrori	98
O'kinch	99
Tol	100
Ketmon	101
Ajdodlar merosi	102
Bolaligim	103
Falakning gardishi	104

Validamga ehtirom

Yuzdagi yozuvlar	106
Sog'inch	107
Xastalik	108
Tush	109
Mantiq	110
Tazod	111
Tashbeh	112
Istiora	113
Onamning suvrati	114
"Tatidim..."	114

Majnun yo'li

Oshiqlik	116
Yurak	117
Yo'llar	118
Majnun yo'li	119
Eski rivoyat	120
Bahor keldi	121
Qafasdagi dunyo	122
Tug'yon	123
Muhabbatdan Vatan quraman	124
Ilk she'r	125
Ishq o'ti	126
So'nggi so'z	127

Gulim	128
Muxlisa	129
Ajr	130
O'sha men bo'laman	131
Ishq madhiyasi	132
Sumbul sochli malagim	133
Jodugar	134
Ayriliq	135
Iqror	136
Beshinchi fasl	137
Savol	138
Ilhom parisiga	139
Kechikkan muhabbat	141
Sevgi gadosi	142
Bir qadam	143
Bahor xazonlari	144
Qaytmas kunlar	145
Qaydasan	146
Ko'z yoshlarim	147
Qaroko'z malak	148
Rashk	149
Baxt yili	150
Armon	151
Hijron	152
Umid	153
Otello monologi	154
Kuzaklarda yig'latgan bahor	155
"Men o'lsam ..."	156
"Muhabbat ..."	156

Qadr

"Shohnoma"ni o'qib	158
Uchinchi yulduz	160
Tungi xayol	161
Do'st	162
Hayot	163
Aprelning to'qqizi	164
Hur qiz	165
Yaxshi qadrlanmas, yomon bo'lmasa	166
Mehrdan tug'ilgan navo	167
Surat	168
Qadr	169
Charlining qo'shig'i	170
Bechora	171
Mehr so'rab, muhabbat so'rab	172

Адабий-бадний нашр

Олимжон ЎСАРОВ

ЮЛДУЗЛАР ҚАРВОНИ

Шеърлар

Муҳаррир: Муҳиддин Омон
Техник муҳаррир: Намоз Толипов
Дизайнер: Муҳриддин Ҳамроев
Мусахҳих: Дилшода Аввалбоева

Нашриёт лицензияси: АЎ № 221 – 16.11.2012 йил.
Теришга берилди: 02.10.2014. Босишга 2016 йил 11 августда
рухсат этилди. Бичими 84x108 1/32. Офсет қоғози. "TimesUZ"
гарнитурасида офсет усулида босилди. Шартли босма
табоғи: 11.0. Нашр табоғи: 5,25. Адади: 1000 нусха.
Буюртма: №17-14

Нашриёт манзили:
«Yurist-media markazi» нашриёти,
Тошкент шаҳри, Отчопар кўчаси, 82-уй.
Тел.: 230-04-74, 212-47-79
E-mail: yurist_media@mail.ru

Босмахона манзили:
«Sano-standart» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Широқ кўчаси, 100-уй.